

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

«SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISH» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

Mashinasozlik texnologiyasi  
fakulteti dekani  
M-A Eshonov

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»

«Sanoat ishlab chiqarishini tashkil  
etish» kafedrası mudiri  
i.f.d. U. Madrahimov

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

“Iqtisodiyot” yo’nalishi talabasi  
Maroziqov Abduhalloq Abdusamad o’g’lining

“Sanoat korxonaları iqtisodiy holatining tahlili” mavzuidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: prof. A. Abdullaev**

**Andijon – 2019 yil**

## Andijon mashinasozlik instituti

Mashinasozlik texnologiyasi fakulteti “Sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish” kafedrası “Iqtisodiyot” yo’nalish 4-kurs

---

«TASDIQLAYMAN»  
Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ i.f.d. U. Madrahimov  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

### MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Maroziqov Abduhalloq Abdusamad o’g’li

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi “Sanoat korxonaları iqtisodiy holatining tahlili”

1. Kafedraning 2018 yil 4 oktyabrdağı 2-sonli majlisida ma’qullangan.
2. Bitiruv ishini topshirish muddati \_\_\_\_\_
3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang’ich ma’lumotlar: Prezident asarlari va ilmiy ishlari, ma’ruzalari, mavzuga oid o’quv va ilmiy adabiyotlar, “Andijon yog’-moy” AJning 2016-2018 yilgi statistik va hisobot hujjatlari
4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro’yxati)
  - I. “Andijon yog’-moy” AJga umumiy texnik-iqtisodiy tavsif.
  - II. Korxonaga iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili
  - III. Korxonaga ishlab chiqarish ko’rsatkichlari tahlili.
5. Chizma ishlar ro’yxati (nomi aniq ko’rsatiladi)
  - 2.1.1-rasm. “Andijon yog’-moy” AJning boshqaruv strukturasi
  - 2.2.1-jadval. “Andijon yog’-moy” AJning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari.
  - 2.3.1-jadval. “Andijon yog’-moy” AJda ishlab chiqarish holati tahlili.
  - 2.3.1-rasm. Korxonaning rentabellik holati ko’rsatkichlari.

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi f. i. sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1.	Kirish	A. Abdullaev	11.12.2018y	14.01.2019y
2.	Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining nazariy asoslari	A. Abdullaev Z. Teshaboeva	15.01.2019y	18.02.2019y
3.	“Andijon yog’-moy” aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy holatining tahlili	A. Abdullaev M. Saidova	20.02.2019y	16.03.2019y
4.	“Andijon yog’-moy” aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy holatini takomillashtirish	M. Saidova	19.03.2019y	22.04.2019y
5.	Xulosa	A. Abdullaev	23.04.2019y	18.05.2019y

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1.	Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining mazmuni, ahamiyati va vazifalari	19.12.2018y	
2.	“Andijon yog’-moy” AJga umumiy iqtisodiy tavsif	29.12.2018y	
3.	Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	14.01.2019y	
4.	“Andijon yog’-moy” AJga umumiy iqtisodiy tavsif va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	24.01.2019y	
5.	Korxonaning iqtisodiy holati tahlili	20.02.2019y	
6.	“Andijon yog’ - moy” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati tahlili	26.03.2019y	
7.	Korxonada asosiy vositalar bilan qurollanishni yaxshilash	22.04.2019y	
8.	Andijon yog’ - moy” AJ biznes imkoniyatlaridan samarali foydalanish	18.05.2019y	
9.	Xulosa va takliflar	19.05.2019y	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: A. Abdullaev

\_\_\_\_\_

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim: A. Maroziqov

\_\_\_\_\_

(imzo)

Topshiriq berilgan sana: 20 dekabr 2018 yil

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>I BOB. Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining nazariy asoslari</b>	
1.1. Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining mazmuni, ahamiyati va vazifalari.....	8
1.2 Korxonalar iqtisodiy holatining tarkibiy tuzilishi.....	19
1.3. Korxonaning iqtisodiy holatini baholovchi mezonlar.....	30
<b>II BOB. «ANDIJON YOG’-MOY» AKSIYADORLIK JAMIYATI IQTISODIY HOLATINING TAHLILI</b>	
2.1 “Andijon yog’-moy” AJga umumiy iqtisodiy tavsif .....	33
2.2. Korxonaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili.....	43
2.3. “Andijon yog’ - moy” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati tahlili.....	54
<b>III BOB. “ANDIJON YOG’ - MOY” AKTSIYADORLIK JAMIYATI IQTISODIY HOLATINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	
3.1. Korxonada asosiy vositalar bilan qurollanishni yaxshilash .....	59
3.2. Andijon yog’ - moy” AJ biznes imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<b>XULOSA</b> .....	68
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI</b> .....	73
<b>ILOVALAR</b> .....	76

## KIRISH

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan iqtisodiy va institutsional islohotlar jarayonida mamlakat rivojlanishini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va normalarni o'z ichiga oluvchi tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhiti shakllandi. Shakllangan tadbirkorlik muhiti mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlari hamda yangicha boshqarish tizimini barpo etilishiga asos bo'ldi, natijada moddiy, tabiiy, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanish esa iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonda Harakatlar strategiyasi tamoyillariga va ustuvor yo'nalishlariga amal qilgan rivojlanishning strategik maqsadlarining belgilanishi jahon andozalariga mos ravishdagi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning farmonlari, ma'ruzalari va chiqishlarida belgilab berilgan barqaror iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalarning amalga ijrosini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyoti va uning hududlari rivojlanishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlashga erishish va makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiy islohotlar strategiyasining asosiy maqsadi qilib belgilab olingan. Shu nuqtai - nazardan, mamlakatimiz Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida iqtisodiyot tizimini sog'lomlashtirish hamda iqtisodiy o'sishni yuqori sur'atlarini ta'minlash maqsadida quyidagi masalalarni hal etish lozimligi qayd etilgan:

- ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish;

- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

**Mavzuni dolzarbligi.** Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalar faoliyati foydadorligi va natijaviyligini baholashdagi mavjud qarashlarning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Korxonalar faoliyatining barcha pog'onalaridagi natijaviyligi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish samaradorligiga ta'sir etadi. Milliy iqtisodiyotning sifatli yangilanishi tadbirkorlik tuzilmalarining samarali faoliyat yuritishi, xalqaro tovar va moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligining oshishiga bog'liqdir.

Moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning hozirgi rivojlangan zamonaviy bosqichida iqtisodiy bilimlarning birikmasi ko'rinishidagi tadqiqotlarga bo'lgan talab ortdi. Bunda qaror qabul qilish, korxonalar moliyaviy-iqtisodiy-tijorat faoliyatini olib borishga bo'lgan an'anaviy tahlil usullarining qayta shakllantirishga bo'lgan zarurat ham tobora ortib bormoqda.

Prezidentimizning ta'biricha, faol tadbirkorlikning asosiy sharti innovatsion faoliyat turi bilan shug'ullanish hisoblanadi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatida zamonaviy yondoshuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi<sup>1</sup>.

Prezidentimiz Murojaatnomada mamlakatimizda biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ahamiyatli ishlar olib borilayotganiga qaramasdan, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha hamon jahon mamlakatlari o'rtasida past o'rinlarni egallab kelayotganimizga o'z e'tiborini qaratdi. Bu esa sohada ko'plab muammolar borligidan dalolat beradi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi "Andijon yog'-moy" AJ faoliyatini tahlil qilish va muammolarini hal etish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. - <http://uza.uz>

- korxonalar iqtisodiy holati tahlilining mazmuni, ahamiyati va vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari yoritish;
- korxonada iqtisodiy salohiyati tarkibini o'rganish;
- korxonaning iqtisodiy holatini baholovchi mezonlarni o'rganish;
- “Andijon yog’-moy” AJga umumiy iqtisodiy tavsif berish;
- korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlilini amalga oshirish;
- “Andijon yog’ - moy” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati tahlili;
- korxonada asosiy vositalar bilan qurollanishni yaxshilash;
- Andijon yog’ - moy” AJ biznes imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yanada yaxshilash.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti - “Andijon yog’-moy” aksiyadorlik jamiyati.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti - “Andijon yog’-moy” AJ faoliyatini o'rganish masalalari.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning asarlaridagi nazariy va amaliy fikrlari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumatini boshqaruvga oid qarorlari, soha olimlarining tadqiqot natijalaridan foydalanildi. “Andijon yog’- moy” aksiyadorlik jamiyatining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, asosiy fondlarining holati o'rganildi. Bunda korxonada hisobot hujjatlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** – aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha berilgan takliflar korxonalarda qo'llanilgach, korxonaning iqtisodiy rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy mazmuni ifodalovchi 8ta savol, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi mazmunini ochib berish uchun jadvallar va rasmlardan foydalanilgan.

## **I BOB. Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining nazariy asoslari**

### **1.1. Korxonalar iqtisodiy holati tahlilining mazmuni, ahamiyati va vazifalari**

Jamiyatda korxonalar faoliyatiga asos solinishi, faoliyat boshlanishi yoki davom ettirilishidan oldin bozor munosabatlari hamda o'zining barcha holat va imkoniyatlarini ilmiy – amaliy tahlil qilishga majbur. Bozor munosabatlari ilmiy boshqaruvni talab qiladi. Maqsadga muvofiq boshqaruv esa uning muhim funktsiyasi bo'lgan iqtisodiy tahlil vositasida amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun ular faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil vositasida axborotlar o'rganilib, korxonalar faoliyati tezkorlik bilan yo'lga solib turiladi.


Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda boshqaruv sub'ektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Chunki xo'jalik sub'ektlari mavjud axborotlar bilan ishlashi, ular asosida to'g'ri xulosalar chiqarishi va natijalardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanishi zarur.

Fan - texnika yangiliklari asosida ishlab chiqarishni yangi texnika hamda texnologiya bilan ta'minlash, modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini zamonaviy usullar hamda yangi innovatsion g'oyalar bilan takomillashtirish negizida iqtisodiyotni rivojlantirish, shu asosda xalqimizning farovonligini yuksaltirish hozirgi davrdagi dolzarb vazifadir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun sanoat korxonalarining faoliyatini har tomonlama va muntazam tarzda iqtisodiy tahlil qilish zarur.

Iqtisodiy tahlil sanoat korxonalarini boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Shu joyda boshqarish jarayonidagi asosiy uch bosqichni alohida



ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi: axborotlarni to'plash va tayyorlash, ob'ektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va uning natijalari asosida takliflar kiritish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish.



### **1.1.1-rasm. Korxonalar boshqarish jarayoni bosqichlari.**

Manba: B. J. Hakimov va boshqalar. "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" O'quv qo'llanma T. "Iqtisod-moliya", 2013 y.

Ko'rinib turibdiki, qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilning o'z vaqtida hamda tezkorlik bilan o'tkazilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yerda asosiy vazifa ana shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda uyg'unlashtirish hisoblanadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatini boshqarish va uning ustidan nazorat ishlarini olib borish uchun rahbarlar kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlanishi zarur. Buning uchun korxonaning xo'jalik faoliyati uzluksiz kuzatib boriladi. Kuzatish yo'li bilan olingan ma'lumotlar miqdor ko'rsatkichlarida ifodalaniib, istalgan vaqtda foydalanish uchun ular o'ziga xos maxsus tartibda, hisob tizimi usullari va shakllari bo'yicha ro'yxat qilib boriladi. Bu holat xo'jalik hisobi tizimining mazmunini tashkil qiladi.

Hozirgi davrda korxonalar iqtisodini boshqarish ancha murakkab masala. Chunki boshqariluvchi ob'ekt shakli va mazmuni hamda boshqaruv maqsadiga ko'ra turli xildir. Lekin barcha holatlarda ham tejamkorlik tamoyiliga amal qilish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik hisobi tizimida tejamkorlik asosida mehnat vositalaridan samarali foydalanish, korxonada mavjud bo'lgan xom ashyo va materiallarni ilmiy asosda sarflashni taqozo etadi.

Milliy iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish jarayonlari korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalari samaradorligini oshirishga va eng muhimi tashqi bozor nuqtai – nazaridan korxonalarimizning ishiga, ularning mahsulot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatilishiga keng yo'l ochmoqda. Korxonalarining mustaqil ravishda tashqi bozorga chiqishi va ularning xorijiy korxonalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi o'z navbatida bu borada ham iqtisodiy tahlilning o'ziga xos maxsus usullarini ishlab chiqishni va ularni takomillashtirishni talab etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor munosabatlari davr talablari asosida rivojlantirilib tobora takomillashtirilib borilmoqda. Bu jarayonda korxonalar,

- o'z ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish;
- texnik yangilash va diversifikatsiya qilish;
- innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish;
- ishlab chiqarish resurslaridan tejamkorlik asosida foydalanish;
- rahbar xodimlar va mutaxassislar malakasini oshirib borish;
- ichki va tashqi bozorda o'z o'rniga ega bo'lish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishi zarur.

Tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy tahlilning ikki hil yo'nalishi mavjud:

1. Korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish. Mazkur yo'nalishda korxonalar faoliyati iqtisodiy tahlil qilinadi.

2. Iqtisodiyotda tarmoqlar, sohalarni tahlil qilish. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotda alohida olingan tarmoqlar, sohalar iqtisodiy hududlar va milliy iqtisodiyotning o'zini tahlil qilish tushuniladi.

Korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish alohida tadqiqot sohasi sifatida quyidagi maxsus bilimlar tizimini o'z ichiga oladi:

- ob'ektiv iqtisodiy qonunlar va sub'ektiv tartibdagi omillar ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy jarayonlar hamda ularning o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish;
- biznes – rejalarni ilmiy asoslash hamda uning bajarilishiga ob'ektiv baho berish;
- ijobiy va salbiy omillarni aniqlash va ularning ta'sirlarini miqdor jihatdan o'lchash;
- korxonalar rivojlanishidagi yo'nalish va mutanosibliklarni ochib, ulardagi foydalanilmagan tashqi va ichki imkoniyatlarni aniqlab berish;
- tajribalarni umumlashtirish asosida maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Iqtisodiy tahlil korxonalarining asosiy xo'jalik jarayonlari va boshqa turli faoliyatlari hamda ularning yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi. Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari asosiy faoliyat, ularni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Korxonaning boshqa faoliyatlarini xo'jalik jarayonlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan moliyaviy hamda investitsiya faoliyati, soliq to'lovlari kabi munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda korxonalar iqtisodiy faqat dinamik holatda emas, balki statik tarzda ham o'rganiladi.

Korxonalar faoliyatida ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan xo'jalik jarayonlari mazmuni quyidagicha izohlanadi.

Ob'ektiv omillar mavjud bo'lgan iqtisodiy qonunlar bo'lib ular asosida xo'jalik jarayonlari yuzaga keltiriladi va boshqariladi. Masalan, talab va taklif qonuniga ko'ra bozorda talab oshsa mahsulotga bo'lgan narx ham oshadi. Bu bilan korxonalar

ishlab chiqaradigan mahsulotlari hamda sotib oladigan xom ashyolar bahosini belgilab olib shu asosda faoliyatni rejalashtiradi. Shuningdek, korxonada faoliyatiga ta'sir etuvchi tashqi ijtimoiy-iqtisodiy voqealar ham ob'ektiv omillar bo'lib hisoblanadi. Masalan, davlatning soliqlar bo'yicha siyosati va undagi zaruriy o'zgarishlar yoki hamkorlikdagi korxonalarda kutilmagan o'zgarishlarning sodir bo'lishi va shu kabilar.

Sub'ektiv omillar shaxslar faoliyati (korxonada xodimlari) bilan bog'langan bo'lib, ularning voqealarga ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Masalan, xo'jalik amaliyoti ob'ektiv shartlar, omillar asosida bashoratlanib rejalashtirilsada, ularning iqtisodiy munosabatlar tarzida yuzaga chiqarilishi, amalga oshirilishi sub'ektiv tarzda sodir bo'ladi. Ya'ni xo'jalik faoliyatining asosi ob'ektiv omillardan tashkil topsada, ulardan ilmiy asosda foydalanish bu shaxslarning bilimi, malakasi, tadbirkorligiga bog'liq.

Yakuniy moliyaviy natijalar korxonada faoliyatining hisobot davri davomida erishgan foyda yoki zararini ifodalab beradi. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda turli tomondan tizimli va kompleks o'rganiladi. Bundan tashqari moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar asosida korxonada moliyaviy holati keng ko'lamda tahlil qilinadi.

Korxonadagi xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyatlarning natijalari rejalashtirishdan oldin hamda rejaning bajarilishi bo'yicha ham samaradorligini o'rganish tahlilda muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Bu bilan har bir faoliyat va ularga ta'sir etgan omillar bo'yicha muhim xulosalar olinadi. Samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish korxonada faoliyatlari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

Korxonadagi barcha xo'jalik munosabatlari iqtisodiy axborotlar ko'rinishida aks etadi va ular yaxlit tizimni tashkil qiladi. Mazkur tizimda turli hildagi, turli darajadagi, turli vaqtdagi iqtisodiy munosabatlar ko'rsatkichlar tarzida ifodalab beriladi. Ushbu tizimdagi axborotlar iqtisodiy tahlil uchun baza bo'lib hisoblanib, ular asosida tadqiq ishlari amalga oshiriladi. Boshqaruv sub'ektiga kelib tushgan axborotlar belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib foydalaniladi. Shuning

uchun korxonada axborotlarning sifati yetarli bo'lishi, o'z vaqtida yetkazib berilishi kabi tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etilishi iqtisodiy tahlilni davr talablari darajasida bo'lishiga olib keladi.

Har bir faoliyat bajaradigan vazifalar mavjud va yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga qarab belgilab boriladi. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'rganilayotgan predmetga to'g'ri va xolisona baho berish;
- biznes rejalar va me'yorlarni ilmiy-iqtisodiy asoslash va ularni uzluksiz takomillashtirib borish;
- biznes rejalarining bajarilishini hamda me'yorlarga amal qilinishiga rioya etilganligini har tomonlama ob'ektiv o'rganish;
- moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanilganligiga (ham alohida, ham birgalikda) baho berish;
- korxonaning xo'jalik va boshqa faoliyatlarini uzluksiz kuzatib borish va ular ustidan nazorat ishlarini (ham faoliyat davomida, ham faoliyat yakunlangandan so'ng) amalga oshirish;
- xo'jalik faoliyatidagi foydalanilmagan tashqi va ichki omillarni aniqlash va ularni miqdor jihatdan hisoblash;
- korxonalarni rivojlantirishga asos bo'ladigan innovatsion g'oyalarni iqtisodiy jihatdan asoslash;
- korxonaning istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash;
- qabul qilingan boshqaruv qarorlarining maqbulligini o'rganish.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi samarali ijtimoi-iqtisodiy natijalarga olib boradi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonalarining tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;

- moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning iqtisodiy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxonaning tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga uning tashkiliy holatini, texnik ta'minot darajasini va ishlab chiqarish jarayonining texnologik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Korxonaning mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishi va sotishi bilan bog'liq ko'rsatkichlari ham tahlilda muhim o'rin egallaydi. Bularga mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimi kiradi. Ishlab chiqarish bilan bog'liq ko'rsatkichlarga ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi (natural miqdori va qiymatida), tovar mahsuloti kabilar kiradi.

Hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida mahsulotni ishlab chiqarish masalaning bir tomoni, eng asosiysi ularni sotishdir. Shu tufayli iqtisodiy tahlilda mahsulotni (ish, xizmatni) sotish hajmi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'pgina hisobotlarda faqat sotilgan mahsulot hajmi ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda o'rganiladigan asosiy ko'rsatkichlardir. Bular tarkibiga daromadlar, xarajatlar, foyda va rentabellik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. O'z navbatida daromadlarning ham bir qancha turlari bor. Xuddi shunday xarajatlar ham, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari ham turlichadir. Qaysi ko'rsatkichni qo'llash tahlilning qaysi sohani o'rganishiga va nima maqsadda amalga oshirishiga bog'liq.

Daromadlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga yalpi daromad, asosiy faoliyatdan olinadigan daromad, moliyaviy faoliyat daromadi, tasodifiy daromad kabi ko'rsatkichlar kiradi. Xarajatlarning ham bir qancha turlari bor. Bu xarajatlar

to'grisidagi Nizomda o'z aksini topgan. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari ham turlichadir. Masalan, aktivlar tahlil qilinsa aktivlar rentabelligi, xarajatlar samaradorligi tahlil qilinsa xarajatlar rentabelligi, mehnat ko'rsatkichlari tahlil qilinsa mehnat rentabelligi kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Moliyaviy natijalar bilan boshqa ko'rsatkichlar tizimi korxonaning iqtisodiy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlarning hajmi korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu guruh ko'rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar va mehnat potentsiali (salohiyati) bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. Har bir guruh ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Korxonaning moliyaviy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning moliyaviy –xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'limidagi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Chunki ular bilan bog'liq ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy manbasining tarkibi, uning holati va samarali ishlatilishini ifodalaydi. Mazkur guruh ko'rsatkichlarga korxonaning o'z mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar hamda chetdan jalb qilingan uzoq va qisqa muddatli mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham asosan buxgalteriya balansining passiv qismida ko'rsatiladi.

Korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar erkin raqobat sharoitida o'ta muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish orqali korxonaning bankrotlik holatiga tushib qolmasligining oldini olishga erishish mumkin.

Ushbu guruh ko'rsatkichlarga korxonaning balansining likvidliligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar, to'lov qobiliyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar, kreditni to'lashga qodirlik bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rganish korxonaning faoliyatining qanday rivojlanganligini, bugungi ahvoli qanday va kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu guruh ko'rsatkichlar

tizimi juda keng. Ular quyidagi besh guruhga bo'linadi:

- korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapitali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- aylanma mablaglar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Ushbu guruh ko'rsatkichlarning har biri yana o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Korxonaning mustahkamligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismidir. Ular mazmuni va mohiyati jihatidan ikki guruhga bo'linadi:

- korxonaning iqtisodiy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy mustahkamligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham mulkdor va korxonalar menejeri uchun muhim ko'rsatkichlardir. Shu tufayli mazkur guruh, ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularga korxonaning iqtisodiy nochorligini ifodalovchi va bankrotlik ehtimolini aniqlaydigan ko'rsatkichlar tizimi kiradi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan yana biri korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Korxonalar faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ikki yirik guruhga bo'linadi: korxonalar ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va korxonalar bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichlar o'z navbatida o'nlab ko'rsatkichlarni o'zida jamlagan.

Korxonalar ish faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'z navbatida yana guruhga bo'linadi: iqtisodiy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;

- moliyaviy salohiyatdan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonalar faoliyati samaradorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar.



Korxonaning bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi ham uning turli bozordagi ishtiroki va o'rnini belgilash imkonini beradi. Korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ya'ni texnologiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, korxonaning xom-ashyo bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, korxonaning moliya va investitsiya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, korxonaning xalq iste'moli va ishlab chiqarish iste'moli bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar shular jumlasidandir.

Korxonada iqtisodiy holati tahlilida, korxonaning iqtisodiy ahvoriga to'liq va batafsil baho berish uchun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo'shgan holda tahlil qilishni taqozo qiladi.


Endilikda korxonada iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirishi uchun moddiy (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar) va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy faollar ham ishtirok etadi. Ularning jamlanmasini oldingidek moddiy va mehnat resurslari deb atash yetarli bo'lmaydi, chunki ularning tarkibiga nomoddiy aktivlar kirmagan. Shu tufayli ularni korxonaning iqtisodiy salohiyati deb atashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, bunda moddiy resurslar bilan birgalikda nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari to'liq o'z ifodasini topadi.

Korxonaning iqtisodiy holatini tahlil qilishda, xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonida ishtirok etadigan barcha moddiy resurslar (asosiy va aylanma mablag'lar), nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari birgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa bu hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi.

Korxonada iqtisodiy holatini iqtisodiy salohiyat tushunchasida o'rganiladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda, unda sodir etilgan iqtisodiy jarayonni to'liq ta'minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy faollar tushuniladi.

**Iqtisodiy salohiyat** tushunchasi bevosita iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq. Iqtisodiy jarayonlarda faqat korxonaning aktivlari emas, balki boshqa elementlari ham ishtirok etadi. Korxonaning iqtisodiy holati tahlilida, korxonaning iqtisodiy ahvoriga to'liq va batafsil baho berish uchun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo'shgan holda tahlil qilishni taqozo qiladi. Endilikda korxonada iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi va unga ma'lum darajada foyda keltirishi uchun moddiy (asosiy vositalar, aylanma mablag'lar) va mehnat resurslari bilan birgalikda nomoddiy aktivlar ham ishtirok etadi (1.1.1-rasm).




### **1.1.1- rasm. Korxonaning iqtisodiy holati tarkibi**

Manba: M.Q. Pardayev, I.T. Abdulkarimov, B.I. Isroilov. « Iqtisodiy tahlil». T., 2004y.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladigan muhim ko'rsatkichlardir. Ushbu ko'rsatkichlarga asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy faollar va mehnat salohiyati bilan bog'liq ko'rsatkichlar kiradi. Har bir guruh ko'rsatkichlar ham o'z navbatida bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

## 1.2. Korxonalar iqtisodiy salohiyatining tarkibiy tuzilishi

Korxonalar iqtisodiy holatining tarkibiy tuzilishi quyidagilardan iborat:



### 1.2.1-rasm. Korxonalar iqtisodiy salohiyati tarkibi

Manba: M.Q. Pardayev, I.T. Abdulkarimov, B.I. Isroilov. « Iqtisodiy tahlil». T., 2004y.

**Asosiy fondlar** korxonalar ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qisman o'tkazib boradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb ataladi va ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deyiladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi (1.2.2-rasm). Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
- uzatish qurilmalari;

- quvvat mashinalari va uskunalari;
- ishchi mashinalar va uskunalari;
- transport vositalari;
- o'lov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asboblari va ishlab chiqarish inventarlari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.


**Noishlab chiqarish asosiy fondlari** korxonaning asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonaning balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yashilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa ob'ektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'kotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** turlarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya'ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan - texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirish tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini aks ettiradi hamda

amaliyotda foizlarda o'lanadi. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini - mashina va asbob-uskunalar



### 1.2.2– rasm.. Korxonaning asosiy fondlarining tarkibi

Manba: E.X. Mahmudov «Korxonaning iqtisodiyoti» T.:TDIU, 2004

ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxonalar asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta'sir o'tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalar qaraganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Korxonalar iqtisodiyoti rivojiga ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi, birinchi o'rinda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta'sir ko'rsatadi.

**Aylanma mablag'lar** - korxonaning aylanma fondlari, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Chunki bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinib o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazgan holda ham buyum- natura ko'rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi.

Mablag'larning ulushi korxonaning umumiy xo'jalik mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60% dan 90% gacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu mablag'lardan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir.

Aylanma mablag'lar tarkibi deyilganda aylanma mablag'larni tashkil etadigan elementlar yig'indisi tushuniladi. Aylanma mablag'larning aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlariga bo'linishi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish sohalarida ulardan foydalanish va taqsimlash xususiyatlari bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishda band bo'lgan aylanma mablag'lar miqdori, asosan mahsulot

ishlab chiqarish shakllarining davomiyligi, texnik rivojlanish darajasi texnologiya mukammalligi va mehnatning tashkil etilganligi bilan aniqlanadi. Muomala mablag'lari summasi, asosan mahsulotni sotish shart-sharoitlari va mahsulotning ta'minot va sotish tizimini tashkil etish darajasiga bog'liq.

Mahsulot muomalasi jarayoniga xizmat ko'rsatadigan aylanma mablag'lar muomala fondlarini ifodalaydi. Ularga korxonalar omborlaridagi sotishga tayyor mahsulot, korxonalar pul mablag'lari, hisob kitobdagi mablag'lar kiradi.

Korxonalar pul mablag'lari doimo harakatda bo'ladi. Muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga o'tadi va hokazo. Aylanma mablag'lar aylanishi korxonalar tomonidan moddiy resurslar va ishlab chiqarish uchun zarur boshqa elementlar to'langan vaqtdan boshlanadi va bu mahsulotni sotishdan olingan tushum ko'rinishida xarajatlar qoplanishi bilan tugaydi. Keyinchalik pul mablag'lari yana korxonalar tomonidan moddiy resurslar olish va ularni ishlab chiqarishga kiritish uchun ishlatiladi.<sup>2</sup>

Yana bir omil bu **mehnat salohiyatidir**. «Rejali iqtisodiyot sharoitida mehnat resursi, mehnatning o'zi, ishchi kuchi, mehnat unumdorligi, mehnat samaradorligi kabi tushunchalar qo'llanilar edi. Endilikda jamiyatning ko'p sohalarda yangilanish jarayoni davom etmoqda. Kundalik hayotimizga yangicha mazmundagi iqtisodiy iboralar, atamalar kirib kelmoqda. Shulardan biri mehnat salohiyati tushunchasidir. Mehnat salohiyati nima, degan savolga javob berish uchun, eng avvalo, uning amal qilish sohasi va turlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Mehnat salohiyati tushunchasini bir kishi, mehnat jamoasi va butun jamiyat miqyosida aniqlash, baholash lozim. Buni to'g'ri aniqlamoq uchun, avvalo, mehnat resursi tushunchasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat resursi mehnat qilishga layoqatli yoshdagi aholi (ayollar 16—55 yoshda, erkaklar 16—60 yoshda) sonida o'z ifodasini topadi. Bu yoshdagi nogironlik va boshqa sabablar bilan ishlamaydiganlar mehnat resursiga kirmaydi.

---

<sup>2</sup> M.Q. Pardayev, I.T. Abdulkarimov, B.I. Isroilov. «Iqtisodiy tahlil». T., 2004 y.

Demak, mehnat resursi deganda aholining ma'lum cheklangan yoshdagi ishlay oladigan faol qismi tushuniladi.

Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat qiluvchilar yoshidan qat'iy nazar, mehnat qilish qobiliyati bo'lsa, moddiy ne'mat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish bilan mashg'ul bo'lmoqda. Bundan mulkdor ham, ish beruvchi ham odamlarning yoshini cheklamasdan, balki ularning mehnat qila olish layoqatidan kelib chiqadi.

Masalan, xususiy korxonada 100 kishi ishlaydi. Shundan 8 kishi nafaqa (pensiya) yoshida, 2 kishi hali 16 yoshga to'lmagan. Bularni mehnat resursi deb bo'lmaydi. Mehnat resursi atigi 90 kishi, 10 kishi mehnat resursiga kirmaydi. Lekin korxonaning mehnat salohiyati son jihatidan ushbu korxonada 100 nafar xodimdan iborat bo'ladi.

Mehnat resursi aholining yoshiga qarab, son jihatidan ma'lum chegara doirasida qaraladi. Mehnat salohiyati esa xodimlarning yoshini cheklamaydi. Uning turli holatlarda qo'llaniladigan ta'rifini ko'rib chiqamiz. Bir kishining mehnat salohiyati deganda, shu xodimning muayyan bir vaqtda ma'lum bir ishni bajarishi mumkin bo'lgan jismoniy va intellektual qobiliyati tushuniladi. Odamlar har xil bo'lganligi tufayli ularning mehnat salohiyati ham turlicha. Bir kishi ma'lum bir vaqt ichida juda ko'p moddiy ne'mat yaratadi yoki boshqa mehnat natijasiga erishishi mumkin, ikkinchi shaxs shu vaqtda unga nisbatan juda oz yoki ko'p narsa yaratishi mumkin. Shu tufayli mehnat salohiyati ularning turli hajmda yaratuvchanlik qobiliyatini belgilaydi. Mehnat resursi mehnatning borligi, mavjudligini ifodalasa, mehnat salohiyati uning yaratuvchanlik qobiliyatini ifodalaydi.

Jamoaning mehnat potentsiali deganda, shu jamoa bajarishi lozim bo'lgan biror ishni (xizmatni) uddalashga qodir turli yoshdagi, malaka va jinsdagi xodimlar jamoasi tushuniladi. Uning mehnat salohiyati son va sifat jihatidan mehnat resursidan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, jamoada mehnat salohiyati 100 kishi, ammo undan 90 nafari shu jamoaning mehnat resursini tashkil qiladi. Xuddi shunday holatni hudud va butun jamiyat miqyosida ham ko'rish mumkin.



Masalan, viloyat aholisi 3,0 million kishi. Shulardan mehnatga qobiliyatli yoshdagi ayollar va erkaklar 1,8 millionni tashkil qiladi. 0,5 millioni vaqtincha ishlamaydi. Yosh bolalar va nafaqa yoshidagilar bilan birga ishlayotganlar soni 1,9 million kishini tashkil qiladi. Endi shularni tegishli kategoriyalarga bo'lish mumkin:

Aholining soni — 3,0 million.

Mehnat resurslari — 1,8 million.

Xodimlar soni — 1,9 million.

Mehnat salohiyati — 2,4 million (1,8 + 0,6).

Ushbu tenglamada 0,6 million kishi ishlayotgan nafaqaxo'rlar va yoshlardir. Bu quyidagicha aniqlandi:  $(1,9 + 0,5 - 1,8 = 0,6)$ . Ushbu ko'rsatkichlarga asosan mehnat salohiyatidan foydalanish darajasini ham aniqlash mumkin. Viloyatda mehnat salohiyati 2,4 millionni tashkil qilgan bir paytda ish bilan band aholi, ya'ni xodimlar soni 1,9 kishini tashkil qiladi. Mehnat salohiyatining foydalanish koeffitsiyenti 0,792 ga yoki 79,2 % ga  $(1,9:2,4 \cdot 100)$  teng.


Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat ko'rsatkichlariga yana bir muhim ko'rsatkich mehnat salohiyati tushunchasi kirib keldi. Bu ob'yektiv zaruriyatdir. Mutaxassislar ushbu tushunchaning mazmunini, farqini yaxshi anglab olishlari lozim, chunki bu ko'rsatkichlar boshqarish va tegishli rejalarni tuzishda o'ta muhimdir. Zero, har bir xodim shunchaki sub'yekt bo'lib qolmasdan, balki jonli ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Chunki uning oilasi bor, shu bois mehnat qilib ro'zg'orini moddiy jihatdan ta'minlash kerak. U mehnati uchun ish beruvchidan haq talab qiladi. Bu mulkdor uchun xarajatdir. Har bir sarf-xarajat naf keltirishi lozim. Shunday qilib, hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan paytda ushbu ko'rsatkichlarning faqat tarkibi emas, balki mazmuni ham tubdan o'zgardi.

Mehnat potentsiali tushunchasiga jamiyat nuqtai - nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning mazmuni bir xodim mehnat potentsialidan farq qiladi, chunki mehnat jarayonida hamisha uning yakka o'zi emas, balki mehnat jamoasi ishtirok etadi. Bu

jamiyat miqyosigacha ko'tariladi. Shunday qilib, ushbu tushunchaga jamiyat nuqtai - nazaridan quyidagicha ta'rif berish mumkin.

**Mehnat salohiyati** — bu biror ko'zda tutilgan ish (faoliyat)ni ma'lum bir vaqtda bajarishga qodir bo'lgan va turli malakaga ega ishchi va xizmatchilardir. Tahlil qilish uchun uni natural va qiymat ko'rsatkichlarida ifodalash lozim. Bu uning tarkibida namoyon bo'ladi.

Quyida mehnat salohiyati tarkibini ko'rishimiz mumkin.



### 1.2.3- rasm. Mehnat salohiyati tarkibi

M.Q. Pardayev, I.T. Abdulkarimov, B.I. Isroilov. « Iqtisodiy tahlil». T., 2004 y.

Mehnat salohiyati tarkibini natural va qiymat jihatidan ifodalash mumkin. Natural jihatidan uning tarkibiga quyidagilar kiradi: oliy ma'lumotli; o'rta maxsus ma'lumotli; umumiy o'rta ma'lumotli; to'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar (bular tarkibiga boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lganlar ham kiradi). Har bir guruh o'z navbatida mutaxassisliklari bo'yicha ham turkumlanadi, chunki barcha oliy ma'lumotli xodimlarga bir xil talab qo'yib, ulardan bir xil samara kutib bo'lmaydi. Masalan, agronom kerak bo'lgan joyga yuqori malakali matematika o'qituvchisini o'tkazib qo'yilsa, o'qituvchining yuqori malakasidan hech qanaqa naf bo'lmaydi. Shu tufayli har bir guruhning bajarayotgan ishiga malakalari to'g'ri kelishini aniqlash lozim bo'ladi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholashda, eng avvalo, iqtisodiy tahlilning maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, uni qiymati va xarajati nuqtai - nazaridan aniqlash lozim. Ushbu ko'rsatkichning to'liq qiymatini baholashda, asosan, buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Buning uchun buxgalteriya balansidagi asosiy vosita (Av), aylanma mablag'lar (Ayl.m) va nomoddiy aktivlarning (Na) umumiy summalarini hamda hisob-kitob orqali aniqlangan ishchi va xizmatchilarning pulda ifodalangan qiymatini (Xq) olish mumkin.

Korxonaning iqtisodiy holatini tahlil qilishda, xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonida ishtirok etadigan barcha moddiy resurslar (asosiy va aylanma mablag'lar), nomoddiy aktivlar va mehnat resurslari birgalikda mushtarak holda o'rganiladi. Moddiy resurslar va nomoddiy aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya balansida ifodalanadi, ammo mehnat resurslari esa bu hisobot tarkibida ko'rsatilmaydi.

Hozirgi paytda mehnat resursining bahosini aniqlash uchun qonuniy asos yaratilgan. Chunki respublikamizda oddiy ishchidan tortib, to yetuk mutaxassisgacha ularni tayyorlash xarajati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bu xarajatlar xodimning birinchi boshlang'ich «shartli bahosi» bo'lib hisoblanadi. So'ngra uning malakasini oshirish, qayta o'qitish uchun xarajat qilinsa, bular ham uning ushbu boshlang'ich bahosiga qo'shiladi. Buning zarurligi shundaki, hozirda ko'pchilik mutaxassislarni tayyorlash korxonalar hisobidan pul to'lash evaziga amalga oshirilmoqda. Korxonalar o'qishni bitirgan talabani ishga qabul qilsa, uning shu korxonalar uchun qiymati aniq.

Iqtisodiy tahlilning afzalligi shundaki, bitta iqtisodiy kategoriyani bir qancha o'lchamlarda (qiymatda, natural miqdorda, hajmda va h.k.) ifodalash mumkin. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini ham xarajatlar nuqtai - nazaridan joriy va keltirilgan xarajatlari bo'yicha baholash mumkin. Ammo bir qator adabiyotlarda bu xarajatlar farqlanmay ishlatilgan. Xarajatlar masalasi qaralganda, birinchisi yoki faqat ikkinchisi bilan cheklanib qolinadi.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini keltirilgan xarajatlar ( $Kp^{kx}$ ) nuqtai - nazaridan hisoblash uning qancha qismi shu hisobot davrida yangidan yaratilgan

mahsulot (ish, xizmat) qiymatiga kirishini aniqlash uchun zarur bo'ladi. Bunda aylanma mablag'larning to'liq summasi, asosiy vositalar va nomoddiy faollarning joriy yil davomida eskirish summasini, ishchi va xizmatchilarga to'lanadigan mehnat haqi ( $Mh$ ) summasini olish mumkin. Buni aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qilamiz:

$$Kp^{kx} = (Av \cdot An) + Ayl.m + (Nf \cdot En) + (Mh) \quad [ 1 ]$$

bunda,

$Kp^{kx}$  — korxonaning iqtisodiy salohiyati;

$An$  — asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiya) normasi;

$En$  — nomoddiy faollarning eskirish normasi;

$Mh$  — mehnatga to'lanadigan haq summasi.

Bu korxonaning iqtisodiy salohiyatining joriy davrda ishlatilishi mumkin bo'lgan qiymatini ifodalaydi. Uni korxonaning iqtisodiy salohiyatining keltirilgan xarajatlari deb ham atash mumkin.

Korxonaning iqtisodiy salohiyatini joriy xarajatda ifodalash ham muhim ahamiyatga ega. Bu uning joriy yilda ishlatilishi evaziga qancha xarajat ketganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich umuman olganda xarajatlar tarkibida ifodalanadi.

Asosiy vositalar (kapital) uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga ( $Avx$ ) asosiy vositalar amortizatsiyasi binolar, jihozlar va yengil mashinalarni ta'mirlash, ijaraga berish xarajatlari; ta'mirlashga ketgan xarajatlar; moddiy ne'matlarni sug'urta qilishga ketgan xarajatlar kiradi. Nomoddiy faollardan foydalanganlik uchun sarf qilinadigan xarajatlar ( $Nfx$ ) tarkibiga nomoddiy faollarning tahlil qilinayotgan davrda ajratilgan eskirish qiymati va boshqa shu kategoriya bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Aylanma mablag'lar uchun sarf qilingan joriy xarajatlarga ( $Ayl.m.x.$ ) mahsulotlar, xom - ashyo va tovarlarni tashishga ketgan xarajatlar, bank muassasalariga to'lanadigan foiz summasi, tovarlarni saralash, o'rash va saqlash hamda sovitkichlarni ta'mirlash xarajatlari, kam baholi va tez yemiriluvchi narsalar, maxsus kiyimlar va idish tovoqlarning eskirishi, nobud bo'lishi, tara xarajatlari kabilar kiradi. Mehnat potensialidan foydalanganlik uchun sarf qilingan

joriy xarajatlarga ( $X_{mx}$ ) mehnat haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, kadrlar tayyorlash, pensiya fondlariga ajratmalar kiradi. Korxonada iqtisodiy holatini joriy xarajatlar miqdori bilan baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$I_p = A_{v.x.} \cdot A_{yl.m.x} + N_{fx} + X_{mx}. \quad [ 2 ]$$

bunda,

$I_p$  - korxonada iqtisodiy holati;

$A_{v.x.}$  - asosiy vositalar uchun sarf qilingan joriy xarajatlar;

$A_{yl.m.x.}$  - aylanma mablag'lar uchun sarf qilingan joriy xarajatlar;

$N_{fx}$  - nomoddiy faollardan foydalanganlik uchun sarf qilinadigan xarajatlar;

$X_{mx}$  - mehnat potensialidan foydalanganlik uchun sarf qilingan joriy xarajatlar;

Korxonada iqtisodiy salohiyatni baholashda qo'llaniladigan, keltirilgan va joriy xarajatlar summasi ularning ishlatilishi va qoplanish muddatlarini aniqlash uchun foydalaniladi. Iqtisodiy potensialning qoplanish muddatini ( $I_{p_{qm}}$ ) aniqlash uchun iqtisodiy potensial summasini ( $I_p^k$ ) keltirilgan xarajatlar ( $I_p^{kx}$ ) summasiga bo'lish mumkin:

$$I_{p_{qm}} = I_p^k : I_p^{kx} \quad [ 3 ]$$

bunda,

$I_{p_{qm}}$  - iqtisodiy potensialning qoplanish muddati;

$I_p^k$  - aniqlash uchun iqtisodiy potensial summasi;

$I_p^{kx}$  - keltirilgan xarajatlar summasi.

Iqtisodiy salohiyatning ishlatilish muddatini aniqlash uchun shartli ravishda, uning umumiy summasini joriy xarajatlari ( $I_p$ ) summasiga bo'lamiz, ya'ni:

$$I_{pim} = I_p : I_p^{jx}. \quad [ 4 ]$$

bunda,

$I_{pim}$  - iqtisodiy salohiyatning ishlatilish muddati;

$I_p$  - umumiy xarajatlari summasi;

$I_p^{jx}$  - joriy xarajatlari summasi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun ular faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilish kun

tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil vositasida axborotlar o'rganilib, korxonalar faoliyati tezkorlik bilan yo'lga solib turiladi.

Tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarda korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish va iqtisodiyotda tarmoqlar, sohalarni tahlil qilish mumkin.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi samarali ijtimoi-iqtisodiy natijalarga olib boradi.

Korxonalar iqtisodiy holati tahlilida, korxonaning iqtisodiy ahvoriga to'liq va batafsil baho berish uchun uning aktivlari bilan birgalikda mehnat resurslarini ham qo'shgan holda tahlil qilishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud.

### **1.3. Korxonaning iqtisodiy holatini baholovchi mezonlar**

Korxonaning iqtisodiy holatini baholovchi mezonlardan biri sifatida iqtisodiy tahlilning maqsadi hamda asosiy vazifalarini keltirishimiz mumkin. Misol tariqasida tahlil qilinayotgan ob'ekt yoki kategoriyani to'g'ri va batafsil baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda ularni nazariy va metodologik jihatdan asoslashdan iboratdir. Korxonaning iqtisodiy salohiyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ammo ko'rsatkichlar sonining ko'pligi yoki ozligiga qarab, o'rganilayotgan ob'ekt yoki kategoriyani baholash uchun yetarli yoki kam degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shu tufayli ko'rsatkichlardan to'g'ri va oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo, ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash lozim. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar juda ko'p belgilari bilan tasniflanadi. Korxonalar iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning faqat iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifi iqtisodiy xulosa chiqarish uchun yetarli bo'ladi. Ularni guruhlariga bo'lish mumkin:

- iqtisodiy salohiyat holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxonada iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini asoslash va ularni tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga daromad (foйда) keltirishda, uning faoliyatini ta'minlashda korxonaning aktivlari bilan birga unda band bo'lgan mehnat salohiyatlari ham ishtirok etadi. Iqtisodiy jarayonlarning sodir bo'lishi uchun, ta'kidlanganidek, asosiy va aylanma mablag'lar bilan ish kuchining ishtiroki lozim. Hozirgi paytda ushbu ko'rsatkichlar bilan birgalikda nomoddiy faollar ham korxonaga ma'lum darajada daromad (foйда) keltirishda ishtirok etadi. Shu tufayli tahlil jarayonida ushbu holatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlari ichida ma'lum darajada o'z o'rniga ega. Ushbu vositalarga xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ancha mablag'i jalb qilingan bo'ladi. Mazkur mablag'larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va uni tahlil qilishda asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Yana aytishimiz mumkinki, korxonada iqtisodiy salohiyati tarkibida yetakchi o'rinlarni aylanma mablag'lar hissasi tashkil qiladi. Uning miqdori turli sohalarda turlichadir. Tahlil jarayonida aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu muammo borasida olimlar bir to'xtamga kelishgan. Xususan, mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda. Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha yagona fikrga kelingan emas. Ayrim darsliklarda<sup>1</sup> alohida aylanma

mablag'lar tahlili ko'rsatilmagan. Faqat uning ayrim qismlari «Korxonalar aktivlari tahlili»da qisqagina qarab chiqilgan. Bunday yondoshuv korxonalar egasini korxonaning iqtisodiy salohiyati samaradorligini nazorat qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa bozor munosabatlari sharoitida kutilmagan xavf-xatar va bankrotlik vaziyatlarini tug'dirishi mumkin. Ayrim olimlar aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi. Masalan, «Moliyaviy tahlil»<sup>3</sup> kitobida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlarni uning holati, harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bolingan. Ammo ushbu ko'rsatkichlar tizimining aniq tasnifi berilmagan. Shuningdek, aylanma mablag'larning harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan aralashib ketgan. Agar ushbu yondashuvga nazariy jihatdan qaraydigan bo'lsak, aylanma mablag'larning mohiyati uning harakatdiligidadir. Ammo uning harakati esa uning samaradorligida ifodalanadi. Shu tufayli bunday yondoshuv nazariy jihatdan chuqur tadqiqotni talab qilsa, amaliy jihatdan noaniqliklarni tug'diradi. Bevosita korxonaning moliyaviy xolatini baholashga qaratilgan kitobda<sup>4</sup> ham ushbu masala nazardan chetda qolgan. Aylanma mablag'larga tegishli faqat uch ko'rsatkich tavsiya qilingan. Tabiiyki, bunday yondoshish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun yetarli emas.

Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarga kam e'tibor berilgan<sup>5</sup>, xuddi shu holatni V.V. Petrov va V.V. Kovalyovlarning tadqiqotlaridan ham kuzatish mumkin.<sup>6</sup> Aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning ilmiy asoslangan tasnifi bo'yicha olimlar o'rtasida bir xil qarash shakllangan emas. Bizningcha, aylanma mablag'lar ham iqtisodiy mazmuni jihatidan asosiy vositalarga o'xshashdir. Ular ham korxonaning aktivlarini tashkil qiladi, ham

---

<sup>3</sup> I.O. Valijonov, V.V. Ergashboyev. Moliyaviy tahlil. T., "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashr uyi, 1998.

<sup>4</sup> N. Hasonov, S. Najmiddinov. Korxonalar moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish. T., "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashr uyi, 1999.

<sup>5</sup> A.T. Ibrohimov. Moliyaviy tahlil. T., "Mehnat", 1995.

<sup>6</sup> B.B. Петров, В.В. Ковалёв. Как читать баланс. М., "Финансы и статистика", 1993.



moddiy resurslar guruhiga kiradi. Shu jihatdan aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Korxonada iqtisodiy holatini baholashdagi yana bir mezon nomoddiy aktivlardir. Bu moddiy bo'lmasada, korxonaga moddiy resurslar singari foyda keltirishi mumkin. Shu bilan birgalikda nomoddiy aktivlarga ham korxonaning ancha mablag'lari qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida har bir so'm qo'yilgan mablag' mulk egasiga qaysi sohaga yoki qaysi ob'yektga qo'yilishidan qat'iy nazar, ma'lum darajada foyda keltirishi kerak. Bu holat esa korxonaning ushbu aktivlarini ham tahlil qilishni taqozo qiladi.

Nomoddiy aktivlar hisobi to'g'risida respublikamizda milliy standart qabul qilindi. Ko'plab korxonalarda ular buxgalteriya balansida o'z aksini topmoqda.

Nomoddiy aktivlarga quyidagilar kiradi:

- yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining qiymati;
- bino, inshoot, uskuna va jihoz kabi mulklardan foydalanish huquqining qiymati;
- ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari, «nou-xau» kabilardan foydalanish huquqlarining qiymati;
- tovar belgilari va boshqa intellektual mulkdan foydalanish kabi huquqlarni beruvchi ruxsatnomalar qiymati.

Korxonaning iqtisodiy salohiyati samaradorligini aniqlashda, samaradorlikning mumtoz ta'rifidan kelib chiqqan holda natijaviy ko'rsatkichlarni iqtisodiy salohiyatining qiymatiga nisbatan olinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxonaning natijaviy ko'rsatkichlari bir qancha ko'rsatkichlar tizimidan iboratdir. Ularga ish natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar (sanoatda ishlab chiqarilgan yoki sotilgan mahsulot hajmi, qurilishda — bajarilgan qurilish-montaj ishlarining hajmi, transportda — tashilgan yuk hajmi — tonna

km.da, savdoda — tovar aylanmasi (oboroti)ning hajmi va h. k.), daromadlar, foyda kabi ko'rsatkichlari kiradi.

Ish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlarga korxonaning yalpi natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlarga daromadning turli xillari (yalpi daromad, soliqqa tortiladigan daromad, asosiy faoliyat daromadi, tasodifiy daromad kabilar) kiradi. Ulardan qaysi ko'rsatkichni tanlab olish bevosita tahlilning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Foyda xususida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Chunki uning ham turlari ko'p. Masalan, bular tarkibiga yalpi foyda, marjinal foyda, sof foyda, taqsimlanmagan foyda, moliyaviy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, tasodifiy foyda kabilarni kiritish mumkin. Tahlil jarayonida qaysi ko'rsatkichdan qay holatda foydalanish ham uning maqsad va vazifalariga bevosita bog'liq. Shu tufayli, biz ushbu ko'rsatkichlar tahlili uchun metodologik asos tariqasida korxonada iqtisodiy salohiyati umumiy qiymatining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur deb hisoblaymiz.

Korxonada iqtisodiy salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga iqtisodiy salohiyatning natijaviyligi (Isa), iqtisodiy salohiyatning daromadligi (Isd) va iqtisodiy salohiyatning foydaliligi (rentabelligi) (Isr) kabi ko'rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

## **II BOB. «ANDIJON YOG’-MOY» AKTSIYADORLIK JAMIYATI IQTISODIY HOLATINING TAHLILI**

### **2.1. “Andijon yog’-moy” AJga umumiy iqtisodiy tavsif**

«Andijon yog’-moy» aktsiyadorlik jamiyati uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonada o’z faoliyati davomida bir qancha rivojlanish bosqichlarini, shuningdek, turg’unlik davrlarini bosib o’tdi.

Korxonaning qurilishi 1906 yilda boshlangan hamda ishga tushirilgan. 1910 yili korxonada qayta ta’mirlangan va AQSHni yangi texnologiyalarini o’rnatilgan. 1918 yildagi fuqarolar urushi korxonada faoliyatini ma’lum muddatga to’xtatib turishiga sabab bo’ldi.

1928 va 1930 yillar davomida korxonani kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan, sovun ishlab chiqarish tsexi kengaytirilgan.


1932 yilda 5100 tonna sovun ishlab chiqarildi. SHu yili korxonadagi ishchilar soni 5839 kishiga yetdi. 1940 yilida yog’ zavodi qayta ta’mirlanib, bir kecha kunduzda 300 tonna paxta chigitini qayta ishlash quvvatiga ega bo’ldi.

1949 yilda korxonada qayta ta’mirlanib uzluksiz ekstaktsiya usuli bilan yog’ olishni 450 tonnaga yetkazdi.

1954 yilda yog’ zavodi “Yog’-moy kombinati” deb qayta nomlandi. 1960 yilda sovun ishlab chiqarish tsexi to’la qayta jihozlanib, mexanizatsiyalashtirildi hamda ishlab chiqarish imkoniyati uch martaga oshirildi.

1962 yilda yog’ni soapstokdan yog’ kislotalarini distilatsiyalash usuli bilan olish tsexi qurildi va bu sovun ishlab chiqarish tannaxini pasaytirishga imkon berdi.

1966 yilda mehnatdagi erishilgan zafarlar uchun kombinat “Mehnat qizil bayrog’”i ordeni bilan taqdirlandi. 1975-1980 yillar yog’-moy kombinatining



**2.1.1-rasm. «Andijon yog'-moy» AJning texnologik jarayoni**

Manba: "Andijon yog' – moy" AJ hisobot hujjatlari.

quvvati kuniga 540 tonna chigitni qayta ishlash darajasiga yetkazildi. 1983-1984 yillarda kombinatning asosiy tsexlari qayta jihozlandi.

1991yilda O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi katta quvonch bilan qarshi olindi. Mustaqillik sharofati bilan 1993 yili yangi distillangan yog'mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tsexi yangi zamonaviy uskunalar bilan jihozlanib, ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yili 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi farmonini bajarish yuzasidan bir qancha amaliy ishlar qilindi. Korxonaga 1994 yili noyabr oyida aktsiyadorlik jamiyatiga aylantirildi, hamda korxonaga a'zolari o'z aktsiyalariga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 1994 yil 25 maydagi 773-sonli buyrug'iga ko'ra "Andijon yog' zavodi" "Andijon yog'-moy" AJga aylantirildi.

Korxonaning asosiy aktsiyalari quyidagicha taqsimlangan:

-davlat – 57828 ta 40479,6 ming so'm miqdoridagi aktsiyalarga yoki umumiy nizom jamg'armasining 25 %iga ega;

-korxonaning mehnat jamoasi – 13723 ta 9606,1 ming so'm miqdoridagi aktsiyalarga yoki umumiy nizom jamg'armasining 6 % iga ega;

-investorlar – 159759 ta 111831,3 ming so'm miqdoridagi aktsiyalarga yoki umumiy nizom jamg'armasining 69 % iga ega.

Aktsiyadorlik jamiyatiga aylangan korxonada 1996 yilda ma'naviy va jismoniy eskirgan asosiy vositalar o'rniga "Sket" firmasining Rotorli ekstratori o'rnatildi. Bu bilan yaxshi iqtisodiy natijalar olindi. 1997 yili yuqori quvvatga ega bo'lgan yangi bug' qozoni qurib ishga tushirildi. Korxonaga atrofdan bug' olishiga chek qo'yildi va ikkinchi bug' qozoni o'rnatildi. 1995 yili oqlangan yog' ishlab chiqarish 10478 tonnani tashkil etgan bo'lsa 1998 yilga kelib 11100 tonnaga yetgan va 3-chorakda 3421 tonna iste'mol yog'i ishlab chiqarilib aholiga yetkazib berildi. Xuddi shuningdek xo'jalik sovuni 1998 yilda 8084 tonna ishlab chiqarildi.

Hozirda «Andijon yog'-moy» ochiq aktsiyadorlik jamiyatida asosan paxta chigitidan paxta yog'i, 60 foizli xo'jalik sovuni va distrlangan yog' kislotalari mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Jamiyatda paxta chigitini qayta ishlash 1 kunda **500 tonna** bo'lib bir yilda **120 ming tonna** paxta chigitini qayta ishlash imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda aktsiyadorlik jamiyati "O'zyog'moytamakisanoat" uyushmasi tarkibiga kiradi. Uyushma, shuningdek viloyat, shahar hokimliklari yordamida tashqi iqtisodiy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yildi va korxonalar Amerika, Belgiya va O'zbekiston hamkorligi asosida 40 tonna quvvatga ega bo'lgan ekstraksiya yog'ni qadoqlash liniyasini ishga tushirdi. Davlat andozasiga javob beradigan hajmi 1 litrli idishlarda o'simlik yog'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Bu bilan qo'shimcha 40 nafar ishchi o'rin yaratildi.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan yog'-moy hajmining miqdori 12,5 ming tonnadan ortdi.

Viloyat hokimligining shahrimizni gullar shahriga aylantiramiz degan qaroriga asosan korxonalar hududi va tashqarisida obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Korxonada bosh muhandis bevosita texnologik jarayonlarni nazorat qiladi. Har bir bo'lim boshlig'i o'zaro birlashtirilgan funktsiyalar asosida korxonani ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiradi va boshqaradi. Ishlab chiqarish normalari asosida tezkor rivojlantirishni amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanadi.


Korxonalar texnologik jarayoni bo'yicha chigit saqlash joyiga kelib tushgan chigit iflosliklardan tozalanadi. Keyingi bosqichda chigitni sheluxa mag'ziga ajratish amalga oshiriladi, so'ngra mag'izni maydalash jarayoni davom etadi. Yog'ni siqib olish natijasida kelib chiqqan kunjara va qora yog' ekstraksiya qilish hamda yog'ni oqlash tsexlariga jo'natiladi. Kunjara tosterlab kunjara omboriga, qora yog' qayta ishlashga jo'natiladi. Yog' oqlash tsexida ajratib olingan xom ashyo SJK, DJK va sovun tsexlarida qayta ishlanadi. Ishlab chiqarilgan sovun tayyor mahsulot omboriga chiqariladi. Yog' esa yog' omboridan sotishga jo'natiladi.

Korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning natijasi asosan, uning to'g'ri amalga oshirilishiga bog'liq. Iqtisodiy tahlil qilish qator talablarga javob berishi, ya'ni u reja va yangi metodikaga asoslanishi hamda analitik jarayon samarasini ta'minlab berishi zarur. Boshqaruv uchun analitik ishlanmalarni bir tartibda, o'z vaqtida hamda tushunarli tarzda yetkazib berishni ta'minlash uchun iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o'tkazish jarayonlariga bir qator talablar qo'yiladi.

Biz tahlil qilayotgan "Andijon yog' - moy" AJda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish va boshqaruv faoliyati o'rganildi. O'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, korxonada tahlilni amalga oshirish ishlari rejalashtiriladi. Tahlilni amalga oshirishda majburiyatlar alohida ijrochilarga bo'lib beriladi va mas'ullar belgilanadi.

Korxonada iqtisodiy tahlilning axborot ta'minoti yo'lga qo'yilgan. Korxonada ishlab chiqilgan hamma turdagi rejalar, ya'ni perspektiv, operativ, texnologik xaritalar, shuningdek, me'yoriy hujjatlar, smetalar, loyihalar bo'yicha me'yoriy-rejali ma'lumotlar manbalari shakllantirib boriladi va ulardan korxonada o'z faoliyati davomida maksimal foydalanmoqda. Bundan tashqari, buxgalteriya, statistika va operativ hisob hujjatlari ham yuritilib, ulardagi hisob tavsifidagi ma'lumotlardan birlamchi hisob hujjat ma'lumotlari sifatida tahlilda foydalanilmoqda. Bizga ma'lumki, har qanday iqtisodiy tahlilning axborot ta'minotida boshlovchi o'rin xo'jalik jarayoni hamda uning natijasida yaqqol aks etgan buxgalteriya hisobi va hisobotga tegishli. Birlamchi hisob registrlarida hamda hisobotda mavjud bo'lgan o'z vaqtida va to'liq tayyorlangan ma'lumotlar tahlili xo'jalik natijalarini yanada yaxshilashni ta'minlaydi. Bundan tashqari korxonada hisobdan tashqari ma'lumotlar manbalari ham yuritilib, ular korxonaning tegishli hujjatlari sifatida korxonada faoliyati va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Korxonada rasmiy hujjatlar, ya'ni korxonada o'z faoliyatida ishlatishga majbur bo'lgan hujjatlar: davlat qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, yuqori



1.1.2-rasm. «Andijon yog'-moy» aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv strukturasi. Manba: «Andijon yog'-moy» AJ hisobot hujjatlari.



turuvchi muassasa qarorlari, tekshiruv va audit xulosalari, korxonah rahbarlarining qarorlari, boshqaruv yig' ilishining qarorlari boshqaruv, iqtisodiy faoliyat va tahlilning asosi sifatida amal qiladi. Bundan tashqari korxonah xo'jalik huquqiga oid hujjatlar, shartnomalar, arbitraj va sud qarorlari ham mavjud.

Ta' sis hujjatlari, asosiy vositalar va aylanma mablag' lar tarkibi, ular qiymati, xo'jalik operatsiyalari hamda korxonaning daromad va xarajatlarini o'zida ifoda etuvchi dastlabki hujjatlar, texnik loyihalarga oid hujjatlar, investorlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, qarzdorlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlarni ifodalovchi yuridik hujjatlar, buxgalteriya hisobining analitik ma'lumotlari, tezkor va statistik hisob ma'lumotlari, buxgalteriya hisoboti, nazorat organlarining dalolatnomalari, auditor va soliq inspeksiyalari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv xulosalari, tijorat banklarining dalolatnomasi, biznes – reja va boshqalar axborot manbalari sifatida tahlil qilinadi.

Ma'lumki, zamonaviy iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish, muomala, iste'mol jarayonlarini qamrab oladi. Bu jarayonlarning samarali boshqarilishi korxonalar iqtisodiy barqarorligining eng muhim omili sifatida maydonga chiqadi. Boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning qator masalalari munozarali xarakterga ega va u haligacha batamom hal etilmagan bo'lib, bunday holat o'z navbatida, ishlab chiqarishni boshqarishning progressiv shakllari va usullarini tadbiriq etishga to'sqinlik qiluvchi, boshqaruv apparati ishining samaradorligini kamaytiruvchi va ko'pincha ko'rsatilgan tadbirlarni noto'g'ri baholashga olib keluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Milliy iqtisodiyotning har qanday ishlab chiqarish sohasidagi salbiy va ijobiy natijalar yoki ishlab chiqarishning yaxshi va yomon vaziyatlarga tushib qolishi, mavjud muhitdagi boshqaruv jarayonining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. «Andijon yog'-moy» aktsiyadorlik jamiyati boshqaruvining eng oliy organi kuzatuv kengashi va

ma'muriy boshqaruv yig'ini hisoblanadi. Aktsiyadorlik jamiyatining ma'muriy boshqaruvi yig'ini besh kishidan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

- rais;
- bosh injener;
- raisning umumiy masalalar bo'yicha muovini;
- bosh buxgalter;
- bosh texnolog.

Raisning 1-o'rinbosariga ishlab chiqarish tsexlari, ishlab chiqarish laboratoriyasi, texnologiya va sifat nazorat bo'limi, kapital qurilish bo'limi va qadoqlash tsexi bo'ysunadi (1.1.2-rasm).

Bosh muhandisga bosh mexanik, bosh energetik, texnika xavfsizligi bo'limi, avtogaraj va temir yo'l bo'limi bo'ysunadi.

Raisning o'rinbosariga axborot tahlil, ishlab chiqarish va sotish bo'limi, shuningdek shoxobchalari bo'ysunadi.

Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga hisobchilar bo'limi, reja-iqtisod bo'limi, moliya va narx bo'limi, tayyor mahsulot savdosini tashkillashtirish va marketing bo'limi bo'ysunadi. Shuningdek, boshqaruv raisiga maxsus bo'lim, xodimlar bo'limi, devonxona, xuquqshunos va qo'riqlash bo'limi bo'ysunadi.

Mahsulotni sotish tijorat ishlari bo'yicha boshqaruv raisi o'rinbosari bo'lib, u o'zini 3ta bo'limiga ega. Ular ta'minot bo'limi, avtotransport bo'limi, temir yo'l transporti bo'limlaridan iborat.


Korxonada bosh muhandis bevosita texnologik jarayonlarni nazorat qiladi. Har bir bo'lim boshlig'i o'zaro biriktirilgan funktsiyalar asosida korxonani ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshiradi va boshqaradi. Ishlab chiqarish normalari asosida tezkor rivojlantirishni amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Boshqaruv raisini ishlab chiqarish ishlarini tashkil etish bo'yicha barcha ishlarini bosh muhandis boshqaradi. Unga bosh texnolog, barcha tsex boshliqlari, barcha smena muhandislari va texnologlari kiradi. Bosh mexanikka ta'mirlash tsexi boshlig'i va barcha tsex mexaniklari, bosh energetikka elektrotsex o'lchov

nazorat asboblari va avtomatika bo'limi boshlig'i, texnika bo'limi, yong'in xavfsizligi bo'limi, bosh hisobchi, reja va ishlab chiqarish bo'limi bo'ysunadi.

## 2.2. Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

Sanoat korxonalarining iqtisodiy holatini tahlil qilishda mahsulot ishlab chiqarish darajasini tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Bunda qiymat o'lchovida hisoblangan umumlashgan ma'lumotlar o'rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha rejada mo'ljallangan hajmning bajarilishini ta'minlash, hamda yuqori sifatli mahsulotlarning yaratilishi korxonaning bevosita muhim ko'rsatkichlari bo'lgan ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar hajmi, sotishdan sof tushum, foyda va rentabellik, moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi omildir. Bunda bir necha yillik ma'lumotlariga asoslanib tahlil o'tkazish zarur. Biz tahlil qilayotgan «Andijon yog'-moy» aktsiyadorlik jamiyatining oxirgi 3 yillik ma'lumotlaridan foydalanamiz.



### 2.2.1-rasm. «Andijon yog'-moy» AJda mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

Manba: «Andijon yog' – moy» AJ hisobot hujjatlari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, joriy davrda, ya'ni 2018 yilda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 5494311 ming so'mga

## 2.2.1 -jadval

" Andijon yog'-moy" AJning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari  
o'zgarishlarining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2018/ 2016		2018/ 2017	
						farq	( foiz)	farq	( foiz)
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	ming so'm	55855480	61441028	66935339	11079859	120,0	5494311	109,0
2	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum	ming so'm	54382289	59820518	64927278	10544989	119,4	51106760	108,5
3	Sanoat ishlab chiqarish xodimlari, shu jumladan	kishi	745	750	754	9	101,2	4	100,5
4	Boshqaruv xodimlari soni	kishi	30	31	31	1	103,3	-	-
5	injener-texnik xodimlar	kishi	178	180	181	3	101,7	1	100,5
6	Ishchilar	kishi	537	539	542	5	100,9	3	100,6
7	Mehnat unumdorligi (bir ishlovchi hisobiga)	ming so'm	74973,80	81921,37	88773,66	13799,86	118,4	6852,29	108,4
8	Mehnat unumdorligi (bir ishchi hisobiga)	ming so'm	104013,93	113990,78	123496,94	19483,01	118,7	9506,16	108,3
9	Ish haqi jamg'armasi	ming so'm	6660300	7740000	9228960	2568660	138,6	1488960	119,2
10	O'rtacha oylik ish haqi, bir ishlovchi hisobiga (9 q/3 q)	so'm	745000	860000	1020000	275000	137,0	160000	118,6
11	Mahsulot tannarxi	ming so'm	42227377	46450115	50870858	8643481	120,5	4420743	109,5
12	Yalpi foyda	ming so'm	12154912	13370403	14772897	2617985	121,5	1402494	110,5
13	Rentabellik darajasi	foiz	28,8	28,78	29,04	0,24	100,8	0,26	100,9
14	Sof foyda	ming so'm	2047715	2293440,8	2574065,4	526350,4	105,7	280624,6	112,2
15	Rentabellik (sof foydaga nisbatan) (14q/11q)	foiz	4,85	4,94	5,06	0,21	104,3	0,12	102,4


Manba: «Andijon yog'-moy» AJ hisobot hujjatlari

ko'paygan bo'lsa, 2016 yilga nisbatan 11079859 ming so'mga yoki +20 %ga ortgan. (2.2.1 -jadval). Bu shundan dalolat beradiki, keyingi ikki yilda korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yillarga nisbatan keskin ko'paygan (2.2.1-rasm).

Korxonada mahsulot sotishdan tushgan tushum 2016 yilda 54382289 ming so'm, 2017 yilda 59820518 ming so'm, 2018 yilda 64927278 ming so'mni tashkil etgan. Mahsulot sotishdan tushgan tushum 2016 yilga nisbatan 10544989 ming so'mga yoki +19,4 % ga, 2017 yilga nisbatan esa 51106760 ming so'mga yoki +8,5 % ga ko'paygan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda mahsulot sotish hajmi ham keskin ortishi kuzatilyapti. Aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning omborlarda turib qolishi kuzatilmayapti. Bu ko'rsatkich shundan dalolat beradiki, aktsiyadorlik jamiyatida joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kattagina qismini sotishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari bo'yicha yaxshi natijalarga ega bo'lganligini bildiradi. Bu yerda e'tibor berish zarur bo'lgan jihat shundaki, 2017 yilga kelib mahsulot ishlab chiqarish hajmi keskin oshgan va o'tgan 2016 yilga nisbatan +20 foizni tashkil etgan. Korxonalar tajribasida mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni turlicha guruhlashtirish mumkin, lekin bular ichida eng muhimlari bo'lib tadbirkorlik omili, mehnat omillari, moddiy zahiralari bilan ta'minlanganlik omili, asosiy vositalar bilan qurollanganlik omili va boshqa omillar hisoblanadi va yuqoridagi ijobiy o'sishga ushbu omillarning barchasi kompleks ta'sir qilgan. Barcha omillar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda, ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, korxonada mehnat resurslari tarkibidagi sezilarsiz o'zgarishlar hisobiga ishlab chiqarish hajmidagi bunday o'sish juda ham ijobiy holat hisoblanadi. Chunki mehnat unumdorligi ham keskin ortgan.

Mehnat, ishlab chiqarishning muhim omili sanaladi, chunki u moddiy boyliklar, zahiralarni xom ashyo sifatida asosiy vositalardan foydalanib, ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra korxonada o'rganilgan davrda sanoat ishlab chiqarish sohasidagi mehnat resurslari tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, korxonada sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni 2016 yilda 745 kishini, 2017 yilda 750 kishini 2018 yilda 754 kishini tashkil etgan. Bu esa mutanosib ravishda korxonada sanoat ishlab chiqarish xodimlarini sonining 2018 yilda o'tgan



### 2.2.2-rasm. “Andijon yog’-moy” AJ mehnat unumdorligining o’zgarish holati tahlili

Manba: «Andijon yog’-moy» AJ hisobot hujjatlari

2016 yilga nisbatan 9 kishiga ko'payishiga va +1,2 foizni tashkil etishiga, 2017 yilga nisbatan esa 4 kishiga ko'payib, +0,5 foizni tashkil etishiga sabab bo'lgan. Injener-texnik xodimlar soni 2018 yilda 181 kishiga teng bo'lib, bu o'tgan 2016 yilga nisbatan 3 nafarga ko'pdir va +1,7 foizni tashkil etgan. 2017 yilga nisbatan esa 1 kishiga ko'payib, bu +0,5 foizni tashkil etgan. Jamiyatning ishchilari soni 2016 yili 537 kishini, 2017 yili 539 kishini, 2018 yili 542 kishini tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada ishchilar soni oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yillarga nisbatan 5 kishiga, 2017 yilga nisbatan esa 3 kishiga ko'paygan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonadagi sanoat ishlab chiqarish sohasidagi resurslarning asosiy salmog'ini ishchilar tashkil etmoqda. Xodimlar

tarkibida mutloq tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmagan. Rahbar xodimlarning kamayishi korxonada uchun samarali hisoblanadi va bu korxonada bevosita ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashadigan xodimlar sonini oshirishdan manfaatdor. Korxonada ishchilar sonining ortishi ijobiy baholanadi. Bu o'zgarishlar mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat resurslari tahlili mehnat unumdorligi tahlilini amalga oshirish bilan davom ettiriladi. Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, chorak, yil) ichida bitta xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi, ya'ni mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, aniq vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori va hajmi hisoblanadi va ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ishlab chiqarish xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Jadval ma'lumotlari asosida «Andijon yog'-moy» AJning mehnat unumdorligi ko'rsatkichi va uning dinamikasiga baho berish mumkin. Mehnat unumdorligi korxonada 2016 yili 74973,80 ming so'mni, 2017 yili 81921,37 ming so'mni va 2018 yili 88773,66 ming so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 137799,86 ming so'mga ortgan va +18,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga nisbatan 6852,29 ming so'mga ortgan, hamda +8,4 foizni tashkil etgan. Demak, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ayniqsa 2017 yilda keskin ko'paygan. Bir ishchi hisobiga mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ham mutanosib ravishda yillar bo'yicha xuddi shunday o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Mehnat unumdorligining o'sishiga asosan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'sir ko'rsatgan.

Mamlakatimizda korxonalarda ish haqi tizimini takomillashtirib borish mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tushishi, uning sharoiti va natijalarini hisobga olib, xodimlar malakasini, mehnat unumdorligini

**" Andijonyog'-moy" AJda moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi  
va dinamik o'zgarishlarining tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2018 yil da 2016 yil ga nisbatan o'zgarishi		2018 yil da 2017 yil ga nisbatan o'zgarishi	
						farq	( foiz)	farq	( foiz)
1	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum,	ming so'm	54382289	59820518	64927278	10544989	119,4	51106760	108,5
2	Sotilgan mahsulot (ish, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxi	ming so'm	42227377	46450115	50870858	8643481	120,5	4420743	109,5
3	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi foyda	ming so'm	12154912	13370403	14772897	2617985	121,5	1402494	110,5
4	Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar, shu jumladan	ming so'm	8725207	9684979,7	10876232,2	2151025,2	124,7	1191252,5	112,3
	Sotish xarajatlari	ming so'm	664912	738052,32	880974,8	216062,8	132,5	142922,5	119,4
	Ma'muriy xarajatlar	ming so'm	1368101	1518592,1	1783702,1	415601,1	130,4	265110	117,5
	Boshqa operatsion xarajatlar	ming so'm	6692194	7428335,3	8211555,3	1519361,3	122,7	783220	110,5
5	Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	ming so'm	2047715	2293440,8	2574065,4	526350,4	105,7	280624,6	112,2

Manba: «Andijon yog'-moy» AJ hisobot hujjatlari.



o'shishni mahsulot sifatini yaxshilashni, barcha resurslardan oqilona foydalanishni va ularning tejalganligini rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Ana shuni hisobga olib, hozir ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi va xizmatchilarning ish xaqini ko'zda tutilayotgan darajada oshirish asosan korxonalarining o'zlari topgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jadalroq ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada ishchilar uchun ajratilayotgan ish xaqi miqdorlari yildan yilga ortib bormoqda, buning hisobiga korxonada o'rtacha oylik ish haqi ham ortgan, ya'ni 2018 yili ishchilarning o'rtacha oylik ish haqi 1020000 so'mga teng bo'lib, 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 275000 so'mga yoki +37,0% ga ortgan bo'lsa, oxirgi 2018 yili o'tgan 2017 yilga nisbatan 160000 so'mga ortgan va +18,6 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ish haqi fondining ortishi va ishchilar sonining sezilarsiz o'zgarishi o'rtacha oylik ish haqini o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Korxonaning iqtisodiy faoliyatini asosiy ko'rsatkichlaridan biri mahsulot tannarxi hisoblanadi. Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydi. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.


Ma'lumki, mahsulot tannarxini asosini moddiy resurslar tashkil qiladi, moddiy resurslarni tejash tadbirlarini amalga oshirish qo'shimcha pul xarajatlari bilan bog'liq. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi 2016 yili 42227377 ming so'mni, 2017 yili 46450115 ming so'mni va 2018 yilda 50870858 ming so'mni tashkil etgan.

Korxonaning mahsulot tannarxi ko'rsatkichi oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 8643481 ming so'mga ortgan va +20,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, oxirgi 2018 yil o'tgan yilga nisbatan 4420743 ming so'mga ko'paygan, hamda +9,5 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada

mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda uning tannarxi ham ortib borgan. Demak, oxirgi yillarda bir birlik mahsulot tannarxida katta o'zgarish sezilmagan. Korxonaning faoliyati natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik korxonaning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha, daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin. Korxonaning rentabellik darajasi 2016 yili 28,8 foizni, 2017 yili 28,78 foizni va 2018 yili 29,04 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonaning samaradorligi ortib, uning moliyaviy holati barqaror bo'lmoqda.

Sof foydaga nisbatan rentabellik 2016 yilda 4,85 foizni, 2017 yilda 4,94 foizni, 2018 yilda esa 5,06 foizni tashkil etgan.



### 2.2.3-rasm. “Andijon yog’-moy” AJ da mahsulot sotish hajmi va yalpi foyda ko’rsatkichlari tahlili

Manba: «Andijon yog’-moy» AJ hisobot hujjatlari

Korxonaning boshqaruv holati tahlilida davr xarajatlari tarkibini o'rganish muhim ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. «Andijon yog’-moy» OAJning davr xarajatlari 2016 yilda 8725207 ming so'mni, 2017 yilda 9684979,7 ming

so'mni va 2018 yilda 10876232,2 ming so'mni tashkil etgan. Korxonaning davr xarajatlari oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 2151025,2 ming so'mga yoki +24,7%ga ko'paygan bo'lsa, o'tgan 2017 yilga nisbatan 1191252,5 ming so'mga yoki +12,3% ga oshgan.

Davr xarajatlari tarkibida so'nggi uch yilda sotish xarajatlari ma'muriy xarajatlariga nisbatan kam bo'lgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi yillar davomida ortib borgan, ayniqsa 2017 yilda ishlab chiqarish hajmi keskin ko'paygan va bu iqtisodiy natijalarga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda uning tannarxi ham ortib borgan. "Andijon yog'-moy" aktsiyadorlik jamiyati sof foydaga nisbatan rentabellik ko'rsatkichi ijobiy bo'lgan. Bunga asosiy sabablardan biri ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning ortishidir.

Korxonada keyingi yillarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishib kelinganini ko'rib chiqdik. Ko'plab ishlab chiqarish korxonalari o'z faoliyatlarini turli sabablarga ko'ra to'xtatayotgan bir sharoitda «Andijon yog'-moy» AJ bozor iqtisodiyoti talablari darajasida o'z faoliyatini davom ettirishga harakat qilib kelmoqda.

Korxonaning har qanday ishlab chiqarish sohasidagi salbiy va ijobiy natijalar yoki ishlab chiqarishning yaxshi va yomon vaziyatlarga tushib qolishi, mavjud muhitdagi boshqaruv jarayonining qay darajada samarali yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini boshqarish tamoyillari tubdan o'zgardi. Mamlakatimiz va Andijon viloyatining sanoat korxonalari bozor islohotlarini amalga oshirib borib, o'z faoliyatlarini takomillashtirib bormoqda. Ular yangi texnika va samarali texnologiyalarni joriy etish orqali, sifatli xom ashyo va materiallarni qo'llash orqali eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lida

**" Andijonyog'-moy" AJda boshqaruv xarajatlarining tarkibi, tuzilishi  
va dinamik o'zgarishlarining tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2018 yil da 2016 yil ga nisbatan o'zgarishi		2018 yil da 2017 yil ga nisbatano'zgarishi	
						farq	( foiz)	farq	( foiz)
1	Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar, shu jumladan	ming so'm	8725207	9684979,7	10876232,2	2151025,2	124,7	1191252,5	112,3
	sotish xarajatlari	ming so'm	664912	738052,32	880974,8	216062,8	132,5	142922,5	119,4
	ma'muriy xarajatlar	ming so'm	1368101	1518592,1	1783702,1	415601,1	130,4	265110	117,5
	boshqa operatsion xarajatlar	ming so'm	6692194	7428335,3	8211555,3	1519361,3	122,7	783220	110,5
2	Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	ming so'm	2047715	2293440,8	2574065,4	526350,4	105,7	280624,6	112,2

Manba: «Andijon yog'-moy» AJ hisobot hujjatlari

harakat qilmoqda. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanishga katta e'tibor qaratildi. Natijada uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari yildan-yilga yaxshilanib bormoqda.

«Andijon yog'-moy» AJda olib borilgan tashkiliy-iqtisodiy faoliyat va korxonada boshqaruv faoliyati tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, korxonada o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda mamlakatimizda yaratilgan ishbilarmonlik muhitidan yanada oqilona foydalanish imkoniyatlariga ega.

Korxonada boshqaruv holati tahlilida davr xarajatlari tarkibini o'rganish muhim ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi. «Andijon yog'-moy» OAJning davr xarajatlari 2016 yilda 8725207 ming so'mni, 2017 yilda 9684979,7 ming so'mni va 2018 yilda 10876232,2 ming so'mni tashkil etgan. Korxonaning davr xarajatlari oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 2151025,2 ming so'mga yoki +24,7%ga ko'paygan bo'lsa, o'tgan 2017 yilga nisbatan 1191252,5 ming so'mga yoki +12,3% ga oshgan. Davr xarajatlari tarkibida so'nggi uch yilda sotish xarajatlari ma'muriy xarajatlariga nisbatan kam bo'lgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi yillar davomida ortib borgan, ayniqsa 2017 yilda ishlab chiqarish hajmi keskin ko'paygan va bu iqtisodiy natijalarga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda uning tannarxi ham ortib borgan. "Andijon yog'-moy" aktsiyadorlik jamiyati sof foydaga nisbatan rentabellik ko'rsatkichi ijobiy bo'lgan. Bunga asosiy sabablardan biri ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning ortishidir.

Korxonada boshqaruv faoliyatiga baho berish uchun eng avvalo uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlili o'tkazish lozim bo'ladi. Rentabellik korxonada foydalilik darajasini xarakterlaydi. Odatda uning bir necha turlari hisob kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha, daromadlarning yuzaga chiqish o'rnini yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin. Korxonaning

rentabellik darajasi 2016 yili 28,8 foizni, 2017 yili 28,78 foizni va 2018 yili 29,04 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonaning samaradorligi ortib, uning moliyaviy holati barqaror bo'lmoqda. Sof foydaga nisbatan rentabellik 2016 yilda 4,85 foizni, 2017 yilda 4,94 foizni, 2018 yilda esa 5,06 foizni tashkil etgan.

Oxirgi yillarda boshqaruv xolati tahlilidan ma'lum bo'ldiki, korxonada faoliyatida bir qator kamchiliklar mavjud. Korxonada mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotning ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish, olinadigan foyda miqdorini yanada oshirishning ko'plab imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shu va shu kabi yana ko'plab tadbirlarni amalga oshirish hozirgi vaqtda korxonada ma'muriyati oldida turgan vazifalardandir. Korxonada boshqaruv faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardandir.

### **2.3. “Andijon yog’- moy” aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish faoliyati tahlili**

“Andijon yog’- moy” aksiyadorlik jamiyati korxonasi iqtisodiy holatiga baho berish uchun, korxonaning 2016-2018 yillarda rejadagi va haqiqiy ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishib chiqamiz (2.3.1-jadval).

Aksiyadorlik jamiyatida 2016 yilda amaldagi bahoda 64564321 ming so'mlik tovar mahsuloti rejalashtirilib, haqiqatda esa, 55855480 ming so'mlik, ya'ni rejaga nisbatan 5291159 ming so'mlik kam mahsulot ishlab chiqarildi yoki reja 86,5 foizga bajarildi. 2017 yilda mazkur ko'rsatkich rejasi 69543212 ming so'mni, uning ijrosi esa 61441028 ming so'mni tashkil qildi. Bunda rejadan ortda qolish 8102184 ming so'mni ko'rsatdi.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 2016 yilda 6634526 ming so'mni tashkil etib, rejaga nisbatan 88,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2017 va 2018 yillarda ham mos ravishda 89,5 va 89,4 foizni tashkil etgan.

Korxonada 800 nafar sanoat ishlab chiqarish xodimlarini ish bilan ta'minlash rejalashtirilgani holda 2016 yilda 745, 2017 yilda 750 nafar va 2018 yilda 754

**"Andijon yog'-moy" aksiyadorlik jamiyatining rejadagi va haqiqiy  
ishlab chiqarish faoliyati tahlili**

t/r.	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2016 yil		2016 yilda rejaga nisbatan farq		2017 yil		2017 yilda rejaga nisbatan farq		2018 yil		2018 yilda rejaga nisbatan farq	
			reja	haqiq.	(+;-)	%	reja	haqiq.	(+;-)	%	reja	haqiq.	(+;-)	%
1.	Tovar mahsuloti (amaldagi bahoda)	ming so'm	64564321	55855480	5291159	86,5	69543212	61441028	-8102184	88,3	76648697	66935339	-9713358	87,3
3.	Xom-ashyo tayyorlash	ming so'm	58100	51381,5	-6718,5	88,4	66100	42353,9	-23746,1	64,1	63000	45707,6	-17292,4	72,6
4.	Qayta ishlangan chigit	ming so'm	56400	50000	-6400	88,7	58900	43002,7	-15897,3	73,0	53600	45427,4	-8172,6	84,8
5.	Xalq iste'moli mollari	ming so'm	6634526	5876432	-758094	88,6	71564730	64033923	7530807	89,5	78987654	70591001	-8396653	89,4
6.	Xodimlar	kishi	800	745	-55	93,1	800	750	-50	93,8	810	754	-56	93,1
7.	Yillik ishlangan ish kunlari	kun	295	163	-132	55,3	310	146	-164	47,1	311	164	-147	52,7
8.	Bir sutkada qayta ishlangan chigit	tonna	191	306	115	160,2	190	295	105	155,3	172	277	105	161,0
9.	Mehnat unumdorligi	ming so'm	78973,8	74973,8	-4000	94,9	83674	81921,37	-1752,63	97,9	99904	88773,66	-740280,3	88,9

Manba: "Andijon yog'-moy" AJ hisobot hujjatlari

nafar ishchi-xodimlar mehnatidan foydalanilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda rejaga nisbatan 93,1 %, 93,8% va 93,1 %ni tashkil qilgan.

2016 yilda reja bo'yicha yillik ish kunlari 295 kun belgilangani holda amalda 163 kun ishlanib, rejaga nisbatan 132 kunga kam, ya'ni 55,3 foiz; 2017 yilda ish kunlari 310 kun belgilangani holda amalda 146 kun ishlanib, rejaga nisbatan 164 kunga kam, ya'ni 47,1 foiz hamda 2018 yilda ish kunlari 311 kun belgilangani holda amalda 164 kun ishlanib, rejaga nisbatan 147 kunga kam, ya'ni 52,7 foiz ish kuni bajarilgan. Buning asosiy sababi, yoz mavsumida korxonada xomashyo manbasi bo'lmaganligi sababli har yili paxta yig'im-terimi mavsumidan oldin, korxonani mavsumga shaylash, ya'ni mavjud texnikalar, bino, laboratoriya, uskunalar (tarozi, pech, transportyor va boshqalar), transport va omborlarni joriy ta'mirdan o'tkazish ishlarining amalga oshirilishidir.

Ishlab chiqarish quvvati tushunchasi – sanoat sohasi, korxonada, tsex yoki agregatning belgilangan assortimentdagi eng ko'p mahsulot tayyorlay olish imkoniyatidir. Lekin, quvvatdan naqadar foydalanish, avvalo rejaning asoslanganligi, mehnatni tashkil etish darajasi, ishlovchi malakasi, boshqaruv saviyasi, intizom, unumdorlik, jihozlar yaroqliligi, ulardan vaqt va quvvat jihatidan foydalanish koeffitsientlari, xom-ashyo, elektr-energiyasi, yoqilg'i-transport ta'minoti kabi ko'plab ta'sir omillariga bog'liqdir.

Korxonaning bir sutkalik chigitni qayta ishlash rejasi 2016 yilda 191 tonna belgilanib, amalda 306 tonnaga, yoki +60,2 foiz, 2017 yilda +55,3 foiz va 2018 yilda esa, +61 foizga ortig'i bilan bajarilgan. Natura hisobida o'lchaganda 2016 yilda rejaga nisbatan kuniga o'rta hisobda 115 tonna, 2017 yilda 105 tonna, 2018 yilda esa, 105 tonna chigit ko'p qayta ishlangan.

Yillik chigitni qayta ishlash quvvati 120000 tonna, kunlik 500 tonna bo'lgani holda, 2016 yilda kuniga 191 tonna, 2017 yilda 190 tonna, 2018 yilda 172 tonna rejalashtirilgan. Bunda yillik quvvatning foydalanish 2016 yilda 38%ga, 2017 yilda 38%ga, 2018 yilda 34,4%ga rejalashtirilgan. Haqiqatda esa ko'proq chigit qayta ishlangan. Ya'ni, 2016 yilda qayta ishlangan chigit miqdori hammasi bo'lib,



306 tonnani, 2017 yilda 295 tonnani va 2018 yilda esa, 277 tonnani tashkil etdi. Bu ko'rsatkichni ulush hisobida olsak, 2016 yilda 60,2 foiz, 2017 yilda 55,3, 2018 yilda esa 61,0 foizga bajarilgan.

## 2.3.2-jadval

**"Andijon yog'-moy" AJ aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish holati**

№	Ko'rsatkichlar	o'lcho v birligi	2016 yil			2016 yilda rejaga nisbatan farq		2017 yil			2017 yilda rejaga nisbatan farq		2018 yil			2018 yilda rejaga nisbatan farq	
			quvvat	reja	haqiq.	mutlaq	Nisbiy %	quvvat	reja	haqiq.	mutlaq	Nisbiy %	quvvat	reja	haqiq.	mutlaq	Nisbiy %
1	Bir sutkada qayta ishlangan chigit	tonna	500	191	306	115	160,2	500,0	190	295	105	155,3	500,0	172	277	105	161,0
2	Bir yilda qayta ishlangan chigit	tonna	120000	56400	50000	-6400	88,7	120000	58900	43003	-15897	73,0	120000	53600	45427	-8172,6	84,8

Manba: "Andijon yog'-moy" AJ hisobot hujjatlari

### **III BOB. “ANDIJON YOG’-MOY” AKTSIYADORLIK JAMIYATI IQTISODIY HOLATINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Korxonada asosiy vositalar bilan qurollanishni yaxshilash**

Korxonada soʻnggi yillarda asosiy fondlarning tarkibini, ayniqsa ishlab chiqarish vositalarini yangilash ishlari olib borilmagan, asosiy fondlarning oʻrtacha yillik qiymati oʻsib borishining sababi ularni mavjud narxlar oʻzgarishi tadbiq etilgan holda qayta baholab borilganligi sabablidir.

2016 yilda asosiy fondlarning yaroqliligi 42,7 foizga teng boʻlgan boʻlsa, 2017 yilda 43,1 foiz, 2018 yil yakuni boʻyicha esa 41,6 foiz ishga yaroqlidir.

3.1.1-jadvalda biz korxonada ishchilarining fondlar bilan umumiy jihatdan qurollanganligini oʻrgandik. Asosiy ishchilarning texnik qurollanganligi bizga zarur koʻrsatkichdir. Chunki hozirgi bozor munosabatlari sharoitida har bir xoʻjalik yurituvchi, mulk egasi oʻzining har bir soʻmini bevosita daromad keltiradigan faoliyatga sarflanishini, noishlab chiqarish, boshqaruv va tashkiliy, yohud boshqa xarakterdagi sarflarning mumkin qadar kamaytirilishini va shuning hisobidan mahsulot ishlab chiqarishning bilvosita xarajatlarini qisqartirish orqali foydani koʻpaytirishga harakat qiladi.

Korxonada asosiy ishchilarining texnik qurollanganligi, ularning ishlab chiqarish vositalari asbob-uskuna, jihoz va stanoklar bilan naqadar taʼminlanganligini ifodalaydi. Bu ularni ish vaqtida oʻz ish faoliyati bilan toʻliq qamrab olinishi uchun zarurdir.

“Andijon yogʻ-moy” aktsiyadorlik jamiyati korxonasi iqtisodiy holatiga baho berish uchun, korxonaning 2016-2018 yillarda rejadagi va haqiqiy ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishib chiqdik.

Aktsionerlik jamiyatida 2016 yilda amaldagi bahoda 64564321 ming soʻmlik tovar mahsuloti rejalashtirilib, haqiqatda esa, 55855480 ming soʻmlik, yaʼni rejaga nisbatan 5291159 ming soʻmlik kam mahsulot ishlab chiqarildi yoki reja 86,5

3.1.1-jadval

"Andijon yog'-moy" aktsiyadorlik jamiyatida ishchilarni fond bilan umumiy va texnik qurollanishining samaradorligi

No	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016 yil	2017 yil	2018 yil
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	ming so'm	55855480	61441028	66935339
2.	Asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymati	ming so'm	14245060	14880902	15248321
3.	Asosiy ishchilarning umumiy fondlar bilan qurollanishi	ming so'm /kishi	26527,0	27606,6	28132,8
4.	Fond qaytimi	so'm	3,9	4,1	4,4
5.	Fond sig'imi	so'm	0,25	0,24	0,23

Manba: "Andijon yog' – moy" AJ hisobot hujjatlariga asosan tayyorlandi

foizga bajarildi. 2017 yilda mazkur ko'rsatkich rejasi 69543212 ming so'mni, uning ijrosi esa 61441028 ming so'mni tashkil qildi. Bunda rejadan ortda qolish 8102184 ming so'mni ko'rsatdi.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 2016 yilda 6634526 ming so'mni tashkil etib, rejaga nisbatan 88,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar 2017 va 2018 yillarda ham mos ravishda 89,5 va 89,4 foizni tashkil etgan.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini korxonalar uchun tavsiya qilamiz:

- asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik. Eskirgan va ma'naviy talabga javob bermaydigan asosiy fondlarni hisobdan chiqarish;
- yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;
- korxonada ilg'or texnika va tajribalarni, yangi g'oya va loyihalarni tadqiq etish ishlariga e'tiborni oshirish va zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- mahsulot sifatini oshirish va tarkibini boyitish bo'yicha keng ko'lamli choratadbirlar dasturini ishlab chiqish;
- qo'shni davlatlar (Rossiya, Qozog'iston va boshqa) va mamlakatimizning eng ilg'or yog' – moy mahsuloti korxonalarini bilan tajriba almashish;
- ishlab chiqarish salohiyatini yanada yaxshilash bo'yicha qilingan ishlarning borishi va natijasi bo'yicha doimiy, muntazam monitoring olib borish.
- xodimlar malakasini oshirish va asosiy fondlar qarovi yuzasidan mas'ul shaxslarni ajratish.



**3.1.1- rasm. “Andijon yog’-moy” AJ asosiy vositalarning samaradorlik ko’rsatkichlarini oshirish yo’nalishlarini bo’yicha tadbirlar**

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu takliflar natijasida korxonada asosiy fondlardan samarali foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1%ga ko'paytirish imkoniyati yaratiladi. Korxonada asosiy vositalar yillik o'rtacha qiymati 15248,3 mln. so'm bo'lgan holda, yillik kutilayotgan iqtisodiy samara 669,0 mln. so'mni tashkil etadi.

$$66935,34 \times 0,01 = 669,35 \text{ mln.so'm}$$

Pirovardida korxonaning ishlab chiqarish quvvatini 1 dan 2 foiz o'sishiga erishish mumkin.

### **3.2. “Andijon yog’ - moy” AJ biznes imkoniyatlaridan samarali foydalanish**

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda tashkiliy-iqtisodiy omillar, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va ho'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish-koncentratsiya, ixtisoslashtirish, kopoperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshharuvda esa, boshharish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini ya'ni korxonada faoliyatining butun ho'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxonada rahbarining ish uslubi va usullari fan-tehnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxonada faoliyatining samarali bo'lishida ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini

oshirish hamda jahon standartlari darajasiga etkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib, qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv tizimi boshqariladigan ob'ektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Hozirgi raqobat kurashi avj olgan paytda korxonalarining biznes imkoniyatlarini to'g'ri baholash hamda ushbu imkoniyatlarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, biznes imkoniyatlari - bu mulk shaklidan qat'iy nazar har qanday faoliyat yuritish uchun yaratilgan zaruriy shart-sharoitlar, tashkiliy-huquqiy asoslar, mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, iqtisodiy –siyosiy barqarorlikning mavjudligi va shu kabi boshqa biznes yuritish uchun zarur bo'lgan hatti-harakatlar, chora va tadbirlar majmuidir. Har qanday korxonaning boshqaruv tizimi bosh maqsad yo'lida oqilona harakat qilsa, rivojlanishning portfel strategiyasini olib borsa biznes imkoniyatlari yuqori darajada bo'ladi.

Korxonani rivojlantirish portfel strategiyasiga uning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan muammolar majmuasi kiradi. Rahbariyat qaysi tarmoqlarga qancha kapital mablag'larni ajratishni hal qiladi.

Korxonaning mavjud resurslarini jamlash va ularni qo'yilgan maqsad yo'nalishida optimal taqsimlash orqali rivojlantirish boshqaruv qarorlari orqali amalga oshadi. SHu sababli korxonani rivojlantirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni takomillashtirish, ularni yetarli darajada asoslash zarur. Qarorning



eng yaxshi turini tanlab olish uchun ma'qul rejalashtirish usuli, operatsiyalarni tadqiq qilish usuli, tizimli tahlil, tarmoqli rejalashtirish va boshqarish usuli, energetik va algoritimli usullardan o'z o'rnida foydalanish zarur.

Bugungi kunda zamonaviy korxonalar o'z missiyasi, maqsadi va funksiyasini aniq belgilab olishi zarur. Korxonada boshqaruvida strategik boshqaruv elementi asosiy yo'nalishni belgilab berishi zarur. Korxonada boshqarishi mumkin bo'lgan ichki omillarni to'liq hisob-kitob qilishi, rivojlanishning ichki imkoniyatlarini to'liq ishlatishi, korxonada maqsadi doirasida ish yuritishi ham zamonaviy korxonaga xos bo'lgan xususiyatdir.

Korxonani tashkiliy-texnik rivojlantirishda uni texnik va texnologik yangilash, moddiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, aylanma mablag'lar harakatini tezlashtirish bilan bir qatorda boshqaruv va mehnatni tashkil etish usullarini takomillashtirish xodimlar bilan ishlashning sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish talab etiladi. Chunki inson resurslari korxonada faoliyatining pirovard natijasini belgilovchi eng muhim omildir. Bu yo'nalishda korxonada xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, o'qitish va malakasini oshirish, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, ilg'or tashkiliy madaniyatni shakllantirish zarur.

Boshqaruv tizimini takomillashtirishda texnik vositalar, boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, jumladan, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi asosidagi faoliyat, boshqaruv tadqiqotlari va loyihalari o'z-o'zidan yoki avtomatik ravishda kerakli natijalarga olib kelmaydi. Bu yerda ko'p narsa insonlarning, ayniqsa, menejrlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. SHu sababli, ijtimoiy omillarning rivojlanishi, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli kuchayishi, ayniqsa, korxonalarga boshqarishning ratsional shakllarini tanlashga keng imkoniyatlar yaratib berilgan hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mustaqillikni kengaytirish va ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi rolining o'sishi iqtisodiy fikrlashning kerakli tomonga yo'naltirilishiga xizmat qiladi hamda boshqarishni

yaxshilashni korxonalar rahbaridan tashqari butun jamoaning vazifasi qilib belgilaydi.

Zamonaviy texnika vositalari va yangi usullardan tashqari korxonalarini boshqarishda ishlab chiqarish jamoalarida zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Amaliyot ko'rsatadiki, ijtimoiy-psixologik muhit boshqaruvning natijalari va amaliyligini yo'qqa chiqarishi yoki aksincha, kuchaytirishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligini oshirish yo'lidagi yana bir muhim qadam bu boshqaruv xarajatlarini qisqartirishdir. Korxonalar rahbariyati ushbu yo'nalishda unumsiz xarajatlarni kamida 10 foizga kamaytirish imkoniyatlarini topsa, korxonalar moliyaviy natijalari yaxshilanadi.

Ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishda rahbar kadrlar zahirasini shakllantirib borish ham ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir. Korxonalar-to'la huquqli, mustaqil xo'jalik sub'ekti sifatida faoliyat yuritarkan, tashqi muhit omillari ham mavjud bo'lgan bozor munosabatlari sharoitida ularni boshqarolmaydi, lekin hisoblashishga majbur.

Zamonaviy korxonalariga kuchli ta'sir etuvchi va ularning faoliyatini shakllantiruvchi omillar - bozor munosabatlaridagi jarayonlar, kon'yuktiv o'zgarishlar, jahon iqtisodiyotining globallasuvi, o'sib borayotgan raqobat, doimiy va tez o'zgarishlar, o'ta murakkab xo'jalik muhiti, zamonaviy ishlab chiqarish xususiyatlaridir.

Korxonalar mustaqilligi oshib borarkan, u o'z kelajagini ta'minlash uchun o'z faoliyatini rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslashib borishi, strategik boshqaruvni joriy etishi, korxonalar o'z tarkibini va o'z xususiyatlarini zamon talablariga qarab o'zgartirishi kerak. Bu korxonalar boshqaruvida egiluvchanlik va moslashuvchanlikni talab etadi. Bunda xodimlarning asosiy korxonalar boyligi ekanligini anglash, inson resurslarini boshqarish korxonalar rahbariyatining e'tibori markazida bo'lishi zarur.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib “Andijon yog’-moy” OAJda zamonaviy boshqaruvni korxonada biznes imkoniyatlarini oshirishga yo’naltirish zarur deb hisoblaymiz. “Andijon yog’-moy” AJda iqtisodiy holatni yaxshilash va barqarorlashtirish uchun korxonada rahbariyatiga quyidagi samarali tadbirlarni tavsiya etamiz: (3.2.1-jadval):

3.2.1-jadval

**“Andijon yog’ - moy” AJda iqtisodiy holatni yaxshilash bo’yicha tadbirlar**

№	Takliflar mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Korxonada marketing departamentini yoki marketing bo’yicha mutaxassis shtatini tashkil qilish	Korxonada marketing faoliyatini tizimli yo’lga qo’yish mumkin bo’ladi. Ma’lumotlar bazasi shakllanadi.
2	Korxonada faoliyatini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o’zgartirishni chuqurlashtirish.	Korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlaydi
3	Faoliyat ko’rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirishni ta’minlash. Birinchi navbatda harakatdagi tsexlarni texnik qayta qurollantirish va qayta ta’minlash.	Korxonada quvvatlaridan to’liq foydalanishni ta’minlaydi
8	Har yillik foydadan maxsus innovatsion faoliyatni moliyalashtirish uchun mablag’lar jamg’arib borish.	Yangi mahsulot ishlab chiqarish g’oyasi, loyihasi va yaratilish mexanizmi uzluksizligi tamoyili amalga oshiriladi. Innovatsion faoliyatni tashkil etish hamda takomillashtirishga tizimli yondoshuvni ta’minlaydi

Manba: Muallif ishlanmasi.

Bizning fikrimizcha, “Andijon yog’ - moy” AJ mehnat jamoasining faolligi bunda asosiy o’rin tutadi va muntazam samarali faoliyatni ta’minlay oladi.

Xulosa o’rnida aytish joizki, marketingda tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy omillaridan to’g’ri foydalanish faoliyatning boshqaruviga ijobiy jihatdan ko’mak beradi va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga zamin yaratib beradi.

## XULOSA

Tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha mavjud manbalarni o'rganib, tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Bozor munosabatlari ilmiy boshqaruvni talab qiladi. Maqsadga muvofiq boshqaruv esa uning muhim funktsiyasi bo'lgan iqtisodiy tahlil vositasida amalga oshiriladi. Korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun ular faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil vositasida axborotlar o'rganilib, korxonalar faoliyati tezkorlik bilan yo'lga solib turiladi.

Korxonalar xo'jalik faoliyatini boshqarish va uning ustidan nazorat ishlarini olib borish uchun rahbarlar kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlanishi zarur. Buning uchun korxonaning xo'jalik faoliyati uzluksiz kuzatib boriladi. Kuzatish yo'li bilan olingan ma'lumotlar miqdor ko'rsatkichlarida ifodalanib, istalgan vaqtda foydalanish uchun ular o'ziga xos maxsus tartibda, hisob tizimi usullari va shakllari bo'yicha ro'yxat qilib boriladi. Bu holat xo'jalik hisobi tizimining mazmunini tashkil qiladi.

Tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy tahlilning ikki hil yo'nalishi mavjud:

- 1.Korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish. Mazkur yo'nalishda korxonalar faoliyati iqtisodiy tahlil qilinadi.
- 2.Iqtisodiyotda tarmoqlar, sohalarni tahlil qilish. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotda alohida olingan tarmoqlar, sohalar iqtisodiy hududlar va milliy iqtisodiyotning o'zini tahlil qilish tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil korxonalarning asosiy xo'jalik jarayonlari va boshqa turli faoliyatlari hamda ularning yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi. Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari asosiy faoliyat, ularni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Korxonaning boshqa faoliyatlarini xo'jalik jarayonlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan moliyaviy hamda investitsiya faoliyati, soliq to'lovlari kabi

munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda korxonalar iqtisodiy holatini faqat dinamik holatda emas, balki statik tarzda ham o'rganiladi.

Yakuniy moliyaviy natijalar korxonalar faoliyatining hisobot davri davomida erishgan foyda yoki zararini ifodalab beradi. Mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiy tahlilda turli tomondan tizimli va kompleks o'rganiladi. Bundan tashqari moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlar asosida korxonalar moliyaviy holati keng ko'lamda tahlil qilinadi.

Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyatlarning natijalari rejalashtirishdan oldin hamda rejaning bajarilishi bo'yicha ham samaradorligini o'rganish tahlilda muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Bu bilan har bir faoliyat va ularga ta'sir etgan omillar bo'yicha muhim xulosalar olinadi. Samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish korxonalar faoliyatlari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim ahamiyatga ega.

Korxonalar xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonalarining tashkiliy-texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning iqtisodiy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy salohiyati (potentsiali) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning to'lovga qodirlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning mustaqilligini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- korxonaning iqtisodiy nochorligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- korxonaning faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

«Andijon yog'moy» aksiyadorlik jamiyatining oxirgi 3 yillik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, joriy davrda, ya'ni 2018 yilda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 5494311 ming so'mga ko'paygan

bo'lsa, 2016 yilga nisbatan 11079859 ming so'mga yoki +20 %ga ortgan. Bu shundan dalolat beradiki, keyingi ikki yilda korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yillarga nisbatan keskin ko'paygan.

Korxonada o'rganilgan davrda sanoat ishlab chiqarish sohasidagi mehnat resurslari tarkibida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, korxonada sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni 2016 yilda 745 kishini, 2017 yilda 750 kishini 2018 yilda 754 kishini tashkil etgan. Bu esa mutanosib ravishda korxonada sanoat ishlab chiqarish xodimlarini sonining 2018 yilda o'tgan 2016 yilga nisbatan 9 kishiga ko'payishiga va +1,2 foizni tashkil etishiga, 2017 yilga nisbatan esa 4 kishiga ko'payib, +0,5 foizni tashkil etishiga sabab bo'lgan. Injener-texnik xodimlar soni 2018 yilda 181 kishiga teng bo'lib, bu o'tgan 2016 yilga nisbatan 3 nafarga ko'pdir va +1,7 foizni tashkil etgan. 2017 yilga nisbatan esa 1 kishiga ko'payib, bu +0,5 foizni tashkil etgan. Jamiyatning ishchilari soni 2016 yili 537 kishini, 2017 yili 539 kishini, 2018 yili 542 kishini tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada ishchilar soni oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yillarga nisbatan 5 kishiga, 2017 yilga nisbatan esa 3 kishiga ko'paygan.

«Andijon yog' moy» AJning mehnat unumdorligi ko'rsatkichi va uning dinamikasiga baho berish mumkin. Mehnat unumdorligi korxonada 2016 yili 74973,80 ming so'mni, 2017 yili 81921,37 ming so'mni va 2018 yili 88773,66 ming so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 137799,86 ming so'mga ortgan va +18,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga nisbatan 6852,29 ming so'mga ortgan, hamda +8,4 foizni tashkil etgan. Demak, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ayniqsa 2017 yilda keskin ko'paygan. Bir ishchi hisobiga mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ham mutanosib ravishda yillar bo'yicha xuddi shunday o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Mehnat unumdorligining o'sishiga asosan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'sir ko'rsatgan.

«Andijon yog' moy» AJning mehnat unumdorligi ko'rsatkichi va uning dinamikasiga baho berish mumkin. Mehnat unumdorligi korxonada 2016 yili

74973,80 ming so'mni, 2017 yili 81921,37 ming so'mni va 2018 yili 88773,66 ming so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 137799,86 ming so'mga ortgan va +18,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga nisbatan 6852,29 ming so'mga ortgan, hamda +8,4 foizni tashkil etgan. Demak, korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ayniqsa 2017 yilda keskin ko'paygan. Bir ishchi hisobiga mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ham mutanosib ravishda yillar bo'yicha xuddi shunday o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Mehnat unumdorligining o'sishiga asosan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'sir ko'rsatgan.

Korxonaning mahsulot tannarxi ko'rsatkichi oxirgi 2018 yili o'tgan 2016 yilga nisbatan 8643481 ming so'mga ortgan va +20,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, oxirgi 2018 yil o'tgan yilga nisbatan 4420743 ming so'mga ko'paygan, hamda +9,5 foizni tashkil etgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda uning tannarxi ham ortib borgan. Demak, oxirgi yillarda bir birlik mahsulot tannarxida katta o'zgarish sezilmagan.

Korxonaning rentabellik darajasi 2016 yili 28,8 foizni, 2017 yili 28,78 foizni va 2018 yili 29,04 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonaning samaradorligi ortib, uning moliyaviy holati barqaror bo'lmoqda. Sof foydaga nisbatan rentabellik 2016 yilda 4,85 foizni, 2017 yilda 4,94 foizni, 2018 yilda esa 5,06 foizni tashkil etgan.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi yillar davomida ortib borgan, ayniqsa 2017 yilda ishlab chiqarish hajmi keskin ko'paygan va bu iqtisodiy natijalarga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mos ravishda uning tannarxi ham ortib borgan. "Andijon yog'-moy" aktsiyadorlik jamiyati sof foydaga nisbatan rentabellik ko'rsatkichi ijobiy bo'lgan. Bunga asosiy sabablardan biri ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning ortishidir.

Korxonada keyingi yillarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishib kelinganini ko'rib chiqdik. Ko'plab ishlab chiqarish korxonalari o'z faoliyatlarini turli sabablarga ko'ra to'xtatayotgan

bir sharoitda «Andijon yog'-moy» AJ bozor iqtisodiyoti talablari darajasida o'z faoliyatini davom ettirishga harakat qilib kelmoqda.

«Andijon yog' moy» AJda olib borilgan tashkiliy-iqtisodiy faoliyat va korxonalar boshqaruv faoliyati tahlilidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, korxonalar o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda mamlakatimizda yaratilgan ish-bilarmonlik muhitidan yanada oqilona foydalanish imkoniyatlariga ega.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda iqtisodiyot barqaror rivojlanishining muhim yo'nalishi sifatida sanoat korxonalarini ustuvor rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratish lozim. Shuni hisobga olib, ularni har tomonlama rag'batlantirish, ularni qo'llab-quvvatlashni faollashtirish lozim. SHu bilan birga iqtisodiy o'sishni barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish uchun boshqarish usullari takomillashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari, ayniqsa sanoat va qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sishi resurslardan foydalanishni kengaytirish hisobiga emas, balki sifat jihatda takomillashtirilgan ishlab chiqarish kooperatsiyasi va klaster mexanizmini joriy etish hisobiga erishish, samarali yo'l bo'lib hisoblanadi.



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 1992 y.
2. O'zbekiston Respublikasi «Korxonalar to'g'risida»gi qonuni 1998 y.
3. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari: (me'yoriy hujjatlar to'plami):I-kitob. (tuzuvchi:S.P.Sidiqov)-T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999 y.
4. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, T., “O'zbekiston”, 2017 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi”. O'zbekiston Milliy axborot agentligi T: 28.12.2018 yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.
7. O'zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish /O'zR FAIqtisodiyot instituti; A.F.Rasulevning tahriri ostida, - T.:KONSAUDITINFORM-NASHR, 2011. 6-b.
8. Abdukarimov T. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999 y.
9. Abdurahmonov K. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”T.: “O'qituvchi”, 2001y.
10. Abdurahmonov K. «Mehnat iqtisodiyoti» T.: «Mehnat», 2004 y.
11. Abdukarimov I. «Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili», T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2003 y.
12. Alimov R. «O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot» T.: «Konsauditinform-Nashr», 2006.
13. Voljin O., Ergashboyev V. «Moliyaviy tahlil» T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998 y ;
14. Juraev A. «Investitsiya loyihalar tahlili» T.: «Sharq», 2003.

15. Mahmudov E. «Korxonalar iqtisodiyoti» T.:TDIU, 2004
16. Malikov B. “Mehnatni muhofaza qilish” T.: “O’qituvchi” 2006.
17. Nazarov A.Sh. Mehnatni tashkil etish va normalash», «O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi» T.: TDIU,2004.
18. Nazarov. A.Sh. «Mehnatni tashkil etish va normalash». T.:TDIU.2000.
19. Ortiqov A.A., Yuldasheva.Sh.M «Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish».T.: TDIU,2004.
20. Ortiqov .A «Sanoat iqtisodiyoti» T.: TDIU, 2004.
21. Pardayev M.Q., Abdulkarimov I. T., Isroilov B. I. «Iqtisodiy tahlil». T., 2004.
22. Pardayev M. Q., Isroilov B. I. “Moliyaviy tahlil”. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nash. uyi, 1999, 95-102-betlar;
23. Pardayev M. Q., “Moliyaviy tahlil muammolari”. «Iqtisod va hisobot jurnali», 1-son, 2007;
24. Pardayev M.Q., «Korxonaning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini tahlil qilish». Samarqand, SamKI,1998 va h.k.
25. Shodmonov Sh. «Iqtisodiyot nazariyasi» T.: «Moliya», 2000.
26. Sharifxodjaev M. «Menejment», T.: “O’qituvchi” 2001.
27. Shokirova Yu. «O’zbekiston yengil sanoatida texnika-texnologiya taraqqiyotining ayrim iqtisodiy ko’rsatkichlarga ta’siri». Innovatsiya-2018 xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to’plami. Farg’ona , 2018 y.
28. Hasanov N., Najbitdinov S. “Korxonalar moliyaviy xolatini baholash muammolari va ularni hal qilish”. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999;
29. Hakimov B. J. va boshqalar. “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” O’quv qo’llanma, T. “Iqtisod-moliya”, 2013 y.
30. Hotamov I. “Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni bosqarish” O’quv qo’llanma, T. 2018 y.
31. “Andijon yog’ - moy” OAJning 2016-2018 yillardagi statistik ma’lumotlari.
32. Internet ma’lumotlari:

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)


[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)

<http://www.imemo.ru/www.pca.uz>

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)


[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.andstat.uz](http://www.andstat.uz).




### 2.2.1-rasm. “Andijon yog’-moy” AJda mahsulot ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

Manba: “Andijon yog’ – moy” AJ hisobot hujjatlari.



### 2.2.2-rasm. “Andijon yog’-moy” AJ mehnat unumdorligining o’zgarish holati tahlili

Manba: «Andijon yog’-moy» AJ hisobot hujjatlari



### 2.2.3-rasm. “Andijon yog’-moy” AJ da mahsulot sotish hajmi va yalpi foyda ko’rsatkichlari tahlili

Manba: «Andijon yog’-moy» AJ hisobot hujjatlari



**3.1.1- rasm. “Andijon yog’-moy” AJ asosiy vositalarning samaradorlik ko’rsatkichlarini oshirish yo’nalishlarini**